

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



KASB TA'LIMI (IQTISODIYOT) KAFEDRASI


SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH FANIDAN

1

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
« 30 » 08 2017 yil

KASB TA'LIMI (IQTISODIYOT) KAFEDRASI

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Namangan - 2017

Mazkur o`quv-uslubiy majmua Soliq va soliqqa tortish fani bo`yicha fan dasturi va ta`lim yo`nalishlarining o`quv rejasi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

- | | |
|-------------|--|
| A.Yuldashev | - NamMQI, Kasb ta`limi «Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti. |
| A.Zayliyev | - NamMQI, Kasb ta`limi «Iqtisodiyot» kafedrası assistenti. |
| E.Jo`rayev  | - NamMQI, Kasb ta`limi «Iqtisodiyot» kafedrası assistenti. |

Taqrizchilar:

- | | |
|------------|----------------------------|
| R.Ismoilov | - NamMTI dotsenti, i.f.n.; |
| R.Ismatov | - NamMQI dotsenti, i.f.n. |

O`quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy Kengashining 2017 yil “___” _____dagi ___-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I	SILLABUS	5
II	FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	16
III	NAZARIY MATERIALLAR	24
1	“Soliq va soliqqa tortish” maxsus kursini o'qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlarining huquq hamda majburiyatlari.	24
2	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.	31
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.	44
4	Qo'shilgan qiymat solig'i.	56
5	Aktsiz solig'i.	62
6	Yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.	87
7	YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq. YUridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.	102
8	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.	118
9	Mahalliy soliqlar va yig'imlar. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar.	138
IV	AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI	160
V	KEYSLAR BANKI	171
VI	MUSTAQIL TA'LIM MABZULARI	194
VII	GLOSSARIY	197
VIII	ADABIYOTLAR RO'YXATI	206

I. SILLABUS

2017-2018 O`QUV YILI

Fanning qisqacha tavsifi				
OTMning nomi va joylashgan manzili:		Namangan muhandislik-qurilish instituti		Namangan shahar I.Karimov ko`chasi 12-uy
Kafedra:		Kasb ta'limi (Iqtisodiyot)		Kasb ta'limi fakulteti tarkibida
Ta'lim sohasi va yo`nalishi:		Barcha noiqtisodiy yo`nalishlar		Barcha noiqtisodiy yo`nalishlar talabalari uchun mo`ljallangan
Fanni (kursni) olib boradigan o`qituvchi to`g`risida ma'lumot:		i.f.n., dotsent Yuldashev Asqarali Yakubovich, Zayliyev Akmaljon Axmadaliyevich		zayliyev1802@inbox.uz
Dars mashg`ulotini o`tkazishning vaqti va joyi:		O`quv-uslubiy bo`lim tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida	Kursning boshlanish va davom etish muddati:	tegishli ta'lim yo`nalishlari o`quv rejasiga muvofiq belgilangan semestrlarda
Individual grafik asosida professor-o`qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:			Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlari 16.00 dan 18.00 gacha	
Fanga ajratilgan o`quv soatlarining o`quv turlari bo`yicha taqsimoti	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim
	Ma`ruza	Amaliy	Tajriba	
	18	18	-	
Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekvizitlari):			«Kichik biznes va tadbirkorlik», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika», «Informatika va axborot texnologiyalari»	
Fanning mazmuni				
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:			Fanni yordamida talabalar ongida soliqlar to`g`risidagi tasavvurni hosil qilish va soliq to`lovchi sub`ektlardan undirilayotgan soliqlar hamda boshqa majburiy to`lovlarning huquqiy asoslarini, ular orqali to`plangan daromad manbalaridan foydalanish yo`nalishlari bo`yicha bilimlarni shakllantirib boriladi.	

	SHu bilan bir qatorda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining tadrijiy rivojlanishi va Prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan farmon hamda qarorlarning ma'no-mohiyatini talabalar ongiga singdirish nazarda tutiladi.
Talabalar uchun talablar	Institutning odob-ahloq kodeksi talablarigi qat'iy rioya qilish, shuningdek: -professor-o`qituvchi auditoriga kirganida o`tirgan joydan turib "Assalomu alaykum" deb kutib olish; - uyali aloqa vositalarini o`chirib qo'yish;</li> <li>- professor-o`qituvchidan so`ng dars mashg`ulotiga kech kelgan talaba auditoriyaga kiritilmaydi; - professor-o`qituvchi va guruhdoshlarga qo`pollik qilmaslik, so`z talashmaslik, hurmat bilan munosabatda bo`lish; - institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; -kiyinish talablari (madaniyati) ga rioya qilish; -mashg`ulotlar vaqtida o`qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqmaslik (umuman dars jarayonida auditoriyadan sababsiz chiqishga ruxsat berilmaydi); - uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o`z vaqtida va sifatli bajarish;</li> <li>- ko`chirmachilik (plagiat) qilmaslik, qat'iy man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy, sababsiz 2 (ikki) va undan ortiq dars qoldirgan talaba keyingi mashg`ulotlarga fakultet dekani ruxsati bilan kiritiladi;</li> <li>- sababli dars qoldirilgan taqdirda, professor-o`qituvchiga ma'lumotnoma (spravka) taqdim etish;

	- har qanday holatlarda ham qoldirilgan darslar qayta o`zlashtirilishi shart;</p> <p>- ma`ruza va amaliyot darslariga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish.
Fani o`quv mashg`ulotlari-ning loyihalari: Loyihani tuzish jarayonida bajarilgan amallar:	1. Fanini bir butunlik deb qarab, “Eng katta” modul deb qabul qilindi, unda beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, – “Katta”, “O`rta” va “Kichik” modullarga ajratildi, so`ng, ularning maqsad va maqsadchalari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilandi. 2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratildi. 3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, talabalar bilim va ko`nikmalarini baholash turi va mezonlari belgilandi.</p> <p>4. O`quv mashg`ulotlarining har bir kichik modulida qo`llaniladigan mashg`ulot turi aniqlab olindi.</p> <p>5. Har bir kichik modulda qo`llaniladigan pedagogik uslub va usullar aniqlanib, joylari topib qo`yildi.</p> <p>6. O`quv muassasasida mavjud axborot texnologiyalardan hamda har bir kichik moduldagi o`quv mashg`ulotining xarakteridan kelib chiqib, o`quv mashg`ulotida foydalaniladigan axborot texnologiyalarning qo`llanish joylari belgilandi.</p> <p>7. O`quv mashg`uloti jaryayonida, har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarnng turi va joyi aniqlandi.</p> <p>8. O`rta modul mazmuni va o`qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi o`quv mashg`uloti ssenariysi yozildi.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o`qituvchi va talaba o`rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin,

	telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. elektron pochtani ochish vaqti soat 16.00 dan 20.00 gacha.
--	--

FANGA AJRATILGAN O`QUB SOATLARINING O`QUB TURLARI BO`YICHA TAQSIMOTI

№	Mavzuning nomi	Jami soat	Ma`ruza	Seminar	Mustaqil ta`lim
1	2	3	4	5	6
<i>Ta'lim yo`nalishlari o`quv rejasiga asosan belgilangan semestr</i>					
1	“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursini o`qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlarining huquq hamda majburiyatlari.	6	2	2	2
2	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i.	6	2	2	2
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i.	8	2	2	4
4	Qo`shilgan qiymat solig`i.	8	2	2	4
5	Aktsiz solig`i.	6	2	2	2
6	Er qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to`lovlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.	8	2	2	4
7	YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq. YUridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i.	8	2	2	4
8	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.	8	2	2	4
9	Mahalliy soliqlar va yig`imlar. Ijtimoiy jamg`armalarga majburiy to`lovlar.	8	2	2	4
JAMI		66	18	18	30

“SOLIQ BA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN BAHOLASH MEZONI

Mazkur fan ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasi bo'yicha 5-8-semestrlarda o'tiladi. Fan yo'nalishlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

Fanning nomi	Ta'lim yo'nalishi	Kurs	Semestr	Ma'ruza	Tajriba	Amaliy mashg'uloti	Kurs ishi	Mustaqil ta'lim
Soliq va soliqqa tortish	Barcha noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari	3-4	5-8	18		18	-	30

Ma'ruza (shu jumladan muammoli, tarqatma materiallar asosida), amaliy va tajriba (shu jumladan kompyuterda slaydlar tayorlash asosida) mashg'uloti soatlaridan iborat bo'lib, JN, ON va YAN ballarining taqsimoti quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi.

Reyting ballarining baholash turlari bo'yicha taqsimoti

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	YOzma ish shaklidagi nazorat (1-5 mavzular)	15	0-15	
2	Test nazorati (1-9 mavzular)	10		0-10
3	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi.	5		0-5
Jami		30	0-15	0-15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati (1-5 mavzular)	20	0-20	
2	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati (6-9 mavzular)	16		0-16
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	4		0-4
Jami		40	0-20	0-20

Yakuniy nazorat “YOzma ish” shaklida belgilangan bo`lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “YOzma ish” variantlari asosida o`tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo`lib fan bo`yicha yakuniy nazorat “YOzma ish” shaklida belgilangan bo`lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

№	Ko`rsatkichlar	JAMI
1	Fan bo`yicha yakuniy nazorat (yozma ish yoki test sinovi)	30

Talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichining namunaviy mezonlari:

T/r	Talabaning fanni o`zlashtirish darajasi (bilim, malaka va ko`nikma darajasi)	Ballar
A)	xulosa va qarorlar qabul qilish	86-100 ball
	ijodiy fikrlay olish	
	mustaqil mushohada yurita olish	
	olgan bilimlarini amalda qo`llay olish	
	mohiyatini tushunish	
	bilish, aytib berish	
	tasavvurga ega bo`lish	
B)	mustaqil mushohada yurita olish	71-85 ball
	olgan bilimlarini amalda qo`llay olish	
	mohiyatini tushunish	
	bilish, aytib berish	
	tasavvurga ega bo`lish	
B)	mohiyatini tushunish	55-70 ball
	bilish, aytib berish	
	tasavvurga ega bo`lish	
G)	aniq tasavvurga ega bo`lmaslik	0-54 ball
	bilmaslik	

NAZARIY MASHG`ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. “Soliq va soliqqa tortish” maxsus kursini o`qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlarining huquq hamda majburiyatlari. “Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursini noiqtisodiy ta`lim yo`nalishi talabalariga o`qitishning zarurligi, kursning maqsadi va vazifalari. Soliq tushunchasi, soliqlarning zarurligi va soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Soliqqa tortish tamoyillari, soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif. Soliq tizimining mohiyati, soliq tizimini guruhlanish tartibi va soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning guruhlanishi. O`zbekiston

Respublikasida soliq tizimini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari. O`zbekiston soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o`xshashlik va farqli jixatlari hamda soliq to`lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Ma`ruza-axborot, aqliy hujum, texnika: blits-so`rov, diqqatni jalb qilish savollari*

**2-mavzu. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i.** YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining iqtisodiy mohiyati va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining byudjet daromadlarida tutgan o`rni. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i to`lovchilari tarkibi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining soliq solish ob`ekti va bazasi. YUridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi va jami daromaddan chegirmalar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini hisoblash va byudjetga to`lash muddatlari. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha davlat soliq xizmati organlarining nazorati.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat*

**3-mavzu. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i.** Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq va uning o`ziga hosligi va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob`ekti. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo`yicha imtiyozlar va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to`lov manbaida ushlab qolish. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirish jarayoni.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Ko`rgazmali, ma`lumotli, anjuman ma`ruza, jamoada ishlash.*

4-mavzu. Qo`shilgan qiymat solig`i. O`zbekistonda qo`shilgan qiymat solig`i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va axamiyati. Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari tarkibi, qo`shilgan qiymat solig`ining soliq solish ob`ekti va uning tarkibi. Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari. Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari hamda import qilinadigan ishlar va xizmatlarga qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash tartibi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Ma`ruza, birgalikda o`qish, texnika: insert, blits-so`rov, grafik tashkil etuvchilar.*

**5-mavzu. Aktsiz solig`i.** Aktsiz solig`i va uning soliq tizimida tutgan o`rni va O`zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig`i. Aktsiz solig`i to`lovchilarining tarkibi, aktsiz solig`ining soliqqa tortish ob`ekti va O`zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aktsiz solig`i stavkalari. O`zbekiston Respublikasiga import qilinadigan aktsizosti

mahsulotlariga qo'llaniladigan soliq stavkalari. Aktsiz solig'ini hisoblash, aktsiz solig'ini hisobga olish tartibi va aktsiz solig'ini to'lash muddatlari. Import qilinadigan aktsizosti mahsulotlaridan soliq undirish tartibi. Aktsiz markalari va ularni qo'llash tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ko'rgazmali, ma'lumotli, anjuman ma'ruza, jamoada ishlash.*

6-mavzu. Yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga hos xususiyatlari va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilar tarkibi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti va soliqning stavkalari. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilish tartibi. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish muddatlari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning huquqiy asoslari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti va uni aniqlash tartibi hamda soliqning stavkalari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga to'lash muddatlari va soliq bo'yicha soliq hisob-kitoblarini topshirish muddatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza-konferentsiya, munozara, blits-so'rov.*

7-mavzu. YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq. YUridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati va mol-mulk solig'ini unidirishning huquqiy asoslari. Mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan mol-mulk bo'yicha o'rtacha qoldiq qiymatni aniqlash uslubiyati. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari. Yer solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq solish ob'ekti, soliq solinaigan baza va soliq stavkalari. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va uni byudjetga to'lash tartibi hamda muddatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Binar ma'ruza, munozara, blits-so'rov.*

8-mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbqiq etilishi va soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq. YAgona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi. YAgona soliq to'lovining soliq ob'ekti. YAgona soliq to'lovi stavkalari. YAgona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi. YAgona yer solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi. Soliq imtiyozlari va soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. Qat'iy belgilangan soliq va uning o'ziga hos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza-vizualizatsiya, aqliy xujum, blits-so'rov, «o'yla-juftlikda ishla-o'rtoqlash», grafik tashkil etuvchilar: T-sxema, taqqoslash jadvali.*

9-mavzu. Mahalliy soliqlar va yig'imlar. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan baza, soliq bo'yicha imtiyozlar hamda soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar tarkibi. Soliq stavkalari va soliqni hisoblash tartibi. Soliq hisobini yuritish tartibi va uni to'lash muddatlari. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibi. YAgona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar tarkibi, hisoblash va to'lash muddatlari. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'implarni to'lovchilar tarkibi va ularni hisoblash tartibi hamda to'lash muddatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Ma'ruza, birgalikda o'qish, texnika: insert, blits-so'rov, grafik tashkil etuvchilar.*

AMALIY MASHG'LOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. "Soliq va soliqqa tortish" maxsus kursini o'qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlarining huquq hamda majburiyatlari. "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursini noiqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitishning zarurligi, kursning maqsadi va vazifalari. Soliq tushunchasi, soliqlarning zarurligi va soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Soliqqa tortish tamoyillari, soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif. Soliq tizimining mohiyati, soliq tizimini guruhlanish tartibi va soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o'xshashlik va farqli jixatlari hamda soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Sinkveyn, insert*

2-amaliy mashg'ulot. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining byudjet daromadlarida tutgan o'rni. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq solish ob'ekti va bazasi. YUridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi va jami daromaddan chegirmalar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash muddatlari. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha davlat soliq xizmati organlarining nazorati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Suhbat, aqliy hujum, taqdimot, blits-so'rov.*

3-amaliy mashg'ulot. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq va uning o'ziga hosligi va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lov manbaida ushlab qolish. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirish jarayoni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Nazorat savollari, BBB jadvalini to'ldirish*

4-amaliy mashg'ulot. Qo'shilgan qiymat solig'i. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi, qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti va uning tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari hamda import qilinadigan ishlar va xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Birgalikdagi ta'lim, texnikasi: prezentatsiya, blits-so'rov, esse, grafik organayzer: "klaster".*

5-amaliy mashg'ulot. Aktsiz solig'i. Aktsiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni va O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i. Aktsiz solig'i to'lovchilarining tarkibi, aktsiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aktsiz solig'i stavkalari. O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan aktsizosti mahsulotlariga qo'llaniladigan soliq stavkalari. Aktsiz solig'ini hisoblash, aktsiz solig'ini hisobga olish tartibi va aktsiz solig'ini to'lash muddatlari. Import qilinadigan aktsizosti mahsulotlaridan soliq undirish tartibi. Aktsiz markalari va ularni qo'llash tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Munozara, suhbat, tezkor-so'rov*

6-amaliy mashg'ulot. Yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga hos xususiyatlari va yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilar tarkibi. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti va soliqning stavkalari. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilish tartibi. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish muddatlari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning huquqiy asoslari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti va uni aniqlash tartibi hamda soliqning stavkalari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga to'lash muddatlari va soliq bo'yicha soliq hisob-kitoblarini topshirish muddatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Suhbat, aqliy hujum, taqdimot, blits-so'rov.*

7-amaliy mashg'ulot. YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq. YUridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati va mol-mulk solig'ini unidirishning huquqiy asoslari. Mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan mol-mulk bo'yicha o'rtacha qoldiq qiymatni aniqlash uslubiyati. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari. Yer solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq solish ob'ekti, soliq solinaigan baza va soliq stavkalari. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va uni byudjetga to'lash tartibi hamda muddatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Diskussiya, tezkor so'rov, Insert*

8-amaliy mashg'ulot. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbiiq etilishi va soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy axamiyati. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq. YAgona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi. YAgona soliq to'lovining soliq ob'ekti. YAgona soliq to'lovi stavkalari. YAgona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi. YAgona yer solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi. Soliq imtiyozlari va soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. Qat'iy belgilangan soliq va uning o'ziga hos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Keys-stadi, munozara, texnika: taqdimot, blits-so'rov.*

9-amaliy mashg'ulot. Mahalliy soliqlar va yig'imlar. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan baza, soliq bo'yicha imtiyozlar hamda soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar tarkibi. Soliq stavkalari va soliqni hisoblash tartibi. Soliq hisobini yuritish tartibi va uni to'lash muddatlari. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish hususiyatlari. Mahalliy yig'imlarni hisoblash va to'lash tartibi. YAgona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar tarkibi, hisoblash va to'lash muddatlari. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'imlarni to'lovchilar tarkibi va ularni hisoblash tartibi hamda to'lash muddatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Birgalikdagi ta'lim, texnikasi: prezentatsiya, blits-so'rov, esse, grafik organayzer: "klaster".*

II. MODULNI O`QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA`LIM METODLARI



“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o`zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo`llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o`taydi.


Metodni amalga oshirish tartibi:

- o`qituvchi mashg`ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko`rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta`lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko`rinishida namoyish etiladi;
- ta`lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o`z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1-jadval

“Insert” metodi

Belgilar	Kasb	Kasblar tasnifi	Professiogramma
«V» – tanish ma'lumot.			
«?» – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
«+» bu ma'lumot men uchun yangilik.			
«– « bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo`llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	Kuchli tomonlari
W – (weakness)	Zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	Imkoniyatlari
T – (threat)	To`siqlar

2-jadval

“SWOT-tahlil” metodi

S	Kuchli tomonlari (shaxs psixologiyasi)	
W	Ojiz tomonlari (kasbiy shakllanishga to`siq bo`luvchi ichki omillar)	
O	Imkoniyatlar (kasbiy shakllanishga mavjud imkoniyatlar)	
T	Xavflar (kasbiy shakllanishga to`siq bo`luvchi tashqi faktorlar)	



“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so`z bo`lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o`rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o`rganish, tahlil qilish asosida o`qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o`rganishda foydalanish tartibida qo`llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o`quv topshirig`ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o`quv topshirig`ining echimini izlash, hal etish yo`llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo`llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to`siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo`llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish



“Konvert” metodi



Konvert usuli yordamida mavzuga oid savol hamda muammolar keng yoritiladi va tahlil qilinadi.

**O`quv topshiriq:** Guruh sardorlari bittadan konvertlardan tanlaysizlar, har bir konvert ichida uchtdan mavzuga oid savollar bo`lib, barchangizni faol ishtirokingiz yordamida istagan grafik organayzer asosida savollarga javob yozasizlar va izohlaysizlar.

Namuna: (Konvert ichidagi savollar:)

1-Konvert

1. Pulning vujudga kelish tarixiga oid ta'limotini izohlang.
2. Pulning vazifalarini asoslang.

2-Konvert

1. Pul nazariyalarini izohlang.
2. Pulning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini izohlang.

3-Konvert


1. Pul aylanish qonunini izohlang.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul taklifi tushunchasini izohlang.

4-Konvert

1. Pulning vazifalarini izohlang.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulga talab tushunchasini izohlang.



“KLAster” metodi

“Klaster” (g`uncha, to`plam, bog`lam) grafik organayzeri puxta o`ylangan strategiya bo`lib, uni o`quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg`ulotlarda qo`llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g`oyalarni umumlashtirish, ular o`rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:


Nimani o`ylagan bo`lsangiz, uni qog`ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o`ylab o`tirmay, shunchaki yozib boring!




Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e`tibor bermang!



Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to`xtamang! Agar ma`lum muddat o`lay olmasangiz, u holda qog`ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g`oya tug`ilguniga qadar davom ettiring!



Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko`proq yangi g`oyalarni ilgari surish, ular o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik, bog`liqlikni ko`rsating!




“BENN DIAGRAMMASI” metodi

Grafik organayzer o`quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o`zlashtirish (sintezlash) ko`nikmalarini hosil qilishga yo`naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo`yicha amalga oshiriladi.

YOzuv taxtasi o`zaro teng to`rt bo`lakka ajratiladi va har bir bo`lakka quyidagi sxema chiziladi:

Grafik organayzer o`quvchi (talaba)lar tomonidan o`zlashtirilgan o`zaro yaqin nazariy bilim, ma`lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo`lim yoki boblar bo`yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.


Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



Grafik organayzerni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

Namuna:






«BLITS-SO`ROB» texnologiyasi.

Ushbu texnologiya biror jarayonning ket-ma-ketligini to`g`ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a`zolari va boshqa guruhlarining a`zolarini fikrlari bilan tanishishga imkon bera-di.

Harakatlar ketma-ketligi aval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so`ngra o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishiga yordam beradi.

BLITS-SO`ROB JADBALI					
Guruh bahosi	Guruh hatosi	To`g`ri javob	YAkka xato	YAkka baho	Jarayon bosqichlari

«BLITS-SO`ROB» TEXNOLOGIYASI O`TKAZISH BOSQICHLARI





“YOZMA ISH” strategiyasi

Strategiya o`quvchi (talaba)larda mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir o`quvchini mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta'minlaydi.


Ta'limda strategiyani qo'llashda o`quvchi (talaba)larga quyidagi sxema asosida ish ko'rish taklif qilinadi:

1. Kim yoki nima haqida yozmoqchi ekanligingizni aniq belgilab oling!
2. Insho (hikoya, maqola) uchun mos sarlavha toping!
3. Insho (hikoya, maqola) ning qoralamasi (xomaki nusxasi) ni tayyorlang!
4. Insho (hikoya, maqola)ning xomaki nusxasini qayta

Strategiya asosida ishlash uchun o`quvchi (talaba)larga 9-10 daqiqa vaqt beriladi.

Uni kichik guruhlarda ham qo'llash mumkin. Bunda o`quvchi (talaba)larni guruhlariga biriktirish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzular asosida hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashda guruh a'zolarining birgalikda, o`zaro fikr almashib faoliyat yuritishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruhning ishi taqdimot asosida namoyish etiladi. O`qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e'tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Strategiyani qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: “Soliq va soliqqa tortish” maxsus kursini o`qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlarining huquq hamda majburiyatlari.

REJA:

- 1.1 «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida
- 1.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ob`ektiv zarurligi
- 1.3 O`zbekiston Respublikasida sjiqlar va boshqa majburiy to`lovlar
- 1.4 Soliq tizimi va soliq munosabatlari sub`ektlarining huquq hamda majburiyatlari
- 1.5. Soliqlarning funksiyalari, elementlari va tamoyillari

**Tayanch so`zlar:** Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliqlarning ob`ektiv zarurligi, soliq siyosati, O`zbekiston Respublikasida amalda bo`lgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar, Soliq munosabatlarida huquq va majburiyatlar, soliq funksiyalari, elementlari va tamoyillari.

1.1 «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, funksiyalari, soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmini o`rganishdagi asosiy fan hisoblanadi.

«Soliq» kategoriyasi — bu muhim iqtisodiy jarayon bo`lib, uning paydo bo`lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog`liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini ta`minlaydi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. SHu sababli ushbu kategoriyadan har bir davlat tomonidan o`ziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa soliqlarga nisbatan qo`yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. SHu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko`p qirrali bo`lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko`rsatadiki, davlat ma`muriy boshqaruv bilan shug`ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma`lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo`lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko`payadi. Bunday holatda soliqlarning shakllari pang-baranglashib boradi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti – bu soliq to`lovchilarning soliqlar va ularga tenglashtirilgan to`lovlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlarlari bo`yicha belgilangan imiyozlar tizimi, soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o`rganishdan iborat. Jumladan, soliq to`lovchilar va uni o`zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to`lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi

elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining uslubiy jihatlari, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - o'rganilayotgan butun ob'ektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo'lsa, sintez esa o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliq turlarini hisoblash va byudjetga undirish tartiblarining amaliy masalalari mazkur yo'l bilan o'rganiladi.

Fanni o'rganishda makroiqtisodiy va mikroiktisodiy holda tahlilni qo'shib olib borish muhim o'rin tutadi. Soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lashning amaldagi masalalarini mikroiktisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nuqtai nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlar va soliq munosabatlariga doir masalalar makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Soliqlar va soliq munosabatlariga doir bilimlarni o'rganishda bir qator iqtisodiy fanlarni ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Barcha iqtisodiy fanlar bir-birini to'ldirib boradi va o'rganish uslublarini osonlashtiradi. Biz “Soliqlar va soliqqa tortish” fanini o'rganishda “Soliq nazariyasi”, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o'rganamiz.

1.2 Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ob'ektiv zarurligi

Soliqlarning amal qilishi bu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin.

Davlatning bajaradigan funktsiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. SHu erda davlat kuchli ijtimoiy - siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali

onalar va boshqalarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. SHu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'ektiv zarur qilib qo'yadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. SHunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

1.3 O'zbekiston Respublikasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq Kodeksda nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aktsiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:

yagona ijtimoiy to'lov;

fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

2¹) byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

3) davlat boji;

4) bojxona to'lovlari;

5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

yagona soliq to'lovi;

yagona yer solig'i;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

1.4 Soliq tizimi va soliq munosabatlari sub'ektlarining huquq hamda majburiyatlari

Soliq tizimiga xususan soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi va shu birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining mustaqil soliq tizimiga ega bo'ldi va uni takomillashtirish borasida yangi izlanishlar davom etmoqda.

SHuni ta'kidlab o'tish joizki, respublika iqtisodiyotida soliqlarning tutgan muhim o'rni borligini nazarga olgan holda respublikada olib borilayotgan soliq islohotlariga katta e'tibor berish lozim. Toki bu islohotlar Respublikamiz iqtisodiyoti ravnaq topishiga, aholi turmush darajasini ko'tarishga doimo xizmat

qilsin.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuv ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. SHu erda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Soliq munosabatlari sub'ektlarining huquq va majburiyatlari

Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

Soliq Kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

Soliq Kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining ushbu Kodeksga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli etkazilgan zararining o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari

Soliq to'lovchilar:

o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliq agentlari bundan tashqari:

soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

1.5. Soliqlarning funktsiyalari, elementlari va tamoyillari

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funktsiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funktsiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funktsiyalarga ega bo'lib, bu funktsiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi.

Soliqlarning funktsiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funktsiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funktsiyasi.
2. Tartibga solish funktsiyasi.
3. Rag'batlantirish funktsiyasi
4. Soliqning nazorat funktsiyasi.
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funktsiyasi - fiskal funktsiya hisoblanib (lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi.

Soliqlarning ushbu funktsiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funktsiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi.

3. Rag'batlantirish funktsiyasi soliq tizimining eng muhim funktsiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi.

4. Soliqlarning nazorat funktsiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'ekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funktsiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarishga sarflanganligi

to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. SHunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina belgilangan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

- soliq solish ob'ekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- to'lash tartibi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek ularning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan belgilanadi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyillariga asoslanadi.

2-Mavzu: YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.

REJA:

- 2.1 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning byudjet daromadlarida tutgan o'rni.
- 2.2 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq solish ob'ekti va bazasi.
- 2.3 YUridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi va jami daromaddan chegirmalar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar.
- 2.4 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash muddatlari. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha davlat soliq xizmati organlarining nazorati.

2.1 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning byudjet daromadlarida tutgan o'rni.

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la

oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. SHu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun daromad solig'i va yalpi daromad solig'i tartibi saqlab qolindi (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, kino-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngil ochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar).

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ulushi 2000 yilda 12,8 foizni tashkil etgani holda, 2005 yilda 6,3 foizni, 2008 yilda esa 5,1 foizni, 2012 yilda 3,2 foizni, 2015 yilda 1,9 foizni tashkil etgan, ya'ni tahlil etilgan 15 yil davomida bu ko'rsatkich 6,7 barobarga kamaygan. Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini yildan-yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi. Daromadning ko'p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o'rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

2.2 Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq solish ob'ekti va bazasi.

Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliqqa tortishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchisi hisoblanishmaydi. Ular o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lovchilari hisoblanishmaydi.

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb, O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa, faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, norezidentlar faoliyati Respublikada vaqtinchalik harakterga ega bo'ladi.

YUridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari bo'lishi uchun qo'yidagi shartlarga javob berishi kerak:

- ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan ta'qiqlangan faoliyatdan tashqari);

- o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo'lishi.
- mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar qayd etilgan shartlarga javob bersagina foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza esa jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi (Soliq kodeksining 128-moddasi).

2.3 YUridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi va jami daromaddan chegirmalar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar.

YUridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

YUridik shaxslarning **jami daromadlari tarkibiga** quyidagilar kiradi:

A) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

B) boshqa daromadlar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Boshqa daromadlar:

- 1) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- 2) mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 3) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 4) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- 5) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- 6) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- 7) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- 8) talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- 9) ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromadlar;
- 10) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- 11) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- 12) undirib olingan yoki qarzidor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzidor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar va penya;
- 13) kursdagi ijobiy farq;
- 14) dividendlar va foizlar;
- 15) royalti;
- 16) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

YUridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan aniqlanadi va qo'yidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

YAF=SST-IT, bu erda:

YAF-yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda.

AFF=YAF-DX+BD-BZ, bu erda:

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX-davr xarajatlari, BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, BZ-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

UF=AFF+MD-MX,

bunda: UF-umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) soliq to'languncha olingan foyda.

$$\text{STF} = \text{UF} + \text{FP} - \text{F3},$$

bunda: STF-solig to'laguncha olingan foyda; FP-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; F3-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, korxona foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lagandan so'ng korxonaning o'zida qoladi.

Jami daromaddan chegirmalar. Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlarning haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko'ra (141-moddasi) xarajatlarning chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarning quyidagilardir:

- 1) moddiy xarajatlarning;
- 2) mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- 3) amortizatsiya xarajatlari;
- 4) boshqa xarajatlarning;
- 5) kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlarning.

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, ishlar bajarish, xizmatlarning ko'rsatish, xom ashyoga (materiallarga) ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi ishlar;

o'zga yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari;

ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarish uchun o'zga yuridik shaxslar tomonidan xodimlarni (texnik personalni) taqdim etishga doir xizmatlarning uchun xarajatlari;

2) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda kapital ta'mirlash xarajatlari).

3) ijaraga to'lovlari, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlarning;

4) konservatsiyaga qo'yilgan ob'ektlarini saqlash xarajatlari.

5) vakolatli tashkilotlarning tomonidan muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni nazarda tutuvchi hujjatlarni berganlik uchun yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha xarajatlarning, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ekspertizadan o'tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog'liq xarajatlarning;

6) mahsulotni sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari;

7) inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfektsiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq;

8) qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitansiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to'langan haq;

9) tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

- 10) reklama uchun xarajatlar;
- 11) qo`shilgan qiymat solig`i va aktsiz solig`ini kiritgan holda mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish tushumi hajmining bir foizi doirasida vakillik xarajatlari. (Tarjimon, ekspertlar, jalb qilish kabi)
- 12) kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta`mirlash va ularga kafolatli xizmat ko`rsatish xarajatlari;
- 13) telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to`lanadigan haq;
- 14) xizmat safarlari uchun xarajatlar;
- 15) O`zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to`lovlari
- 16) soliq to`lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet ellik mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog`liq xarajatlar;
- 17) auditorlik tekshiruvlari bo`yicha xarajatlar;
- 18) maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo`yicha xizmatlarga haq to`lash;
- 19) bank va depozitariy xizmatlariga haq to`lash;
- 20) soliq to`lovchining faoliyatida zarur bo`lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari;
- 21) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to`lovchining xarajatlariga kiritiladigan byudjetga va davlat maqsadli jamg`armalariga to`lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to`lovlar;
- 22) assotsiatsiyalarga, jamg`armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan xalqaro tashkilotlarga to`lanadigan badallar, agar bunday badallarni to`lash soliq to`lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo`lsa yoki O`zbekiston Respublikasi Prezidentining, O`zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa;
- 23) mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta`minlash, texnika xavfsizligi, yong`inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta`minlash xarajatlari;
- 24) litsenziya bitimlariga ko`ra huquq egasi bilan shartnoma bo`yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma`lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog`liq xarajatlar.
- 25) intellektual faoliyat natijalariga bo`lgan huquqlardan va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolarga, sanoat namunalariga va intellektual mulkning boshqa turlariga bo`lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun to`lovlar;
- 26) buxgalteriya hisobotini e`lon qilish, boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;
- 27) xodimning mehnatda mayib bo`lishi yoki uning sog`lig`iga boshqacha tarzda shikast etkazilishi yoxud xodim oila a`zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a`zolariga beriladigan moddiy yordam;
- 29) qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to`lovlar;

30) tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy ko`rikdan o`tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga to`lanadigan haq;

31) sog`liqni saqlash ob`ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, sog`lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport ob`ektlari, ta`lim ob`ektlari, shuningdek, uy-joy fondi ob`ektlari ta`minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalari va barcha turdagi ta`mirlash ishlarini o`tkazish xarajatlari);

32) ixtiyoriy sug`urta uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan qo`shilgan qiymat solig`i va aktsiz solig`ini qo`shgan holda tushgan tushum hajmining 2 foizi doirasidagi sug`urta mukofotlari (badallari), yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslar foydasiga to`lanadigan sug`urta mukofotlari (badallari),

33) O`zbekiston Respublikasida sug`urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo`lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug`urta qilish bo`yicha to`lanadigan sug`urta mukofotlari summalari;

34) sug`urtaning majburiy turlariga sug`urta mukofotlari (badallari);

35) atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to`lovlari;

36) faoliyat bilan bog`liq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o`rnatish hamda kapital tusdagi boshqa xarajatlar mustasno.

37) ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimental ishlarini o`tkazish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo`yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo`yicha ko`rgazmalar va ko`riklar, tanlovlar tashkil etish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo`yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini to`lash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo`llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdagi xom ashyo va materiallarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari;

38) soliq to`lovchi tomonidan geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo`yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlar;

39) qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmiga va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgarlik ishlariga doir xarajatlar;

40) zararlar va yo`qotishlar;

41) kreditlar (zayomlar) bo`yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo`yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo`yicha foizlar mustasno;

42) kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalar doirasida muddati o`tgan va uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo`yicha foizlar, bundan investitsiya davrida

kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo'yicha foizlar mustasno;

43) valyuta hisobvaraqlari, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:

chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo'lgan mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda;

chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo'lgan mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda;

chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valyuta moddalari qayta baholanganda.

44) o'zining qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;

45) moliyaviy ijara, shu jumladan lizing bo'yicha ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi bo'lgan mablag'larni to'lashga doir xarajatlar;

46) soliq to'lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlar;

47) favqulodda zararlar. Favqulodda zararlar — soliq to'lovchilarning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiquvchi voqealar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlarning moddalaridir. U yoki bu modda favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

yuridik shaxsning odatdagi xo'jalik faoliyati uchun xos bo'lmasligi;

bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;

48) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ekting muassislari (ishtirokchilari) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar.

49) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini, bolani ikki yoshga to'lguniga qadar parvarishlash nafaqalarini, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalarni to'lash xarajatlari.

50) xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

51) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari;

52) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

53) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish xarajatlari

54) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) xarajatlari;

55) mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

56) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan to'lovlar;

57) abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq.

Chegirilmaydigan xarajatlar

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

3) normalardan ortiqcha xarajatlar (xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari);

4) nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

5) xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

6) umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;

7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

8) soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

9) jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan soliq to'lovchining xarajatlari;

11) dala ta'minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportdan foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'langan to'lovlar;

12) pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'la to'lanadigan nafaqalar;

13) xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam

14) mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi sababli xodimlarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan to'lovlar;

15) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar, homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar;

16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;

18) atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlari;

19) kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;

20) loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot etkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga o'rnini qoplash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

22) sud chiqimlari;

23) aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarning o'rnini qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

24) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkining (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar,

25) xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagi sanksiyalar;

26) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar.

26¹) ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskuna uchun to'lanadigan haq;

27) boshqa xarajatlar, Solik Kodeksining 142—145-moddalarida ko'rsatilganlari bundan mustasno.

Foyda solig'i bo'yicha Imtiyozlar (Soliq Kodeksi 158-modda)

1-3 bandlar bekor kilingan.

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko'prog'ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi ushbu qismda belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

Soliq solinadigan foydani kamaytirish

YUridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va xayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning **ikki foizidan** ko'p bo'lmagan miqdorda;

3) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, biroq soliq solinadigan foydaning **30 foizidan** ko'p bo'lmagan miqdorda.

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning **10 foizidan** oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga.

7) qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foyda summasiga;

2.4 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash muddatlari. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha davlat soliq xizmati organlarining nazorati.

YUridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 1998 yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001 yilda 26 foizga tushgan. 2002 yilga esa 24 foiz, 2003 yilda 20 foiz, 2004 yilda 18 foiz, 2005 yilda 15 foiz, 2006 yilda 12 foiz va 2007 yilda 10 foiz va 2015 yildan 7,5 foiz qilib belgilangan.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i STAVKALARI

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Yuridik shaxslar (2-4-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	7,5
2	Tijorat banklari	15
3	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4	Rentabellik* darajasiga bog'liq holda mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari):	
	20 foizgacha	7,5
	20 foizdan yuqori	rentabellikning 20 foizlik darajasidan oshadigan foyda summasining 50 foizi**
5	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrda PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlari bundan mustasno:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

*) Rentabellik foyda solig'i to'lanishiga qadar foydaning realizatsiya qilingan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi summasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Mobil aloqa xizmatini ko'rsatadigan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilaydi.

**) eksport ulushiga bog'liq holda stavkaga tuzatishlar kiritish amalga oshirilmaydi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 10 foiz miqdorida foydaga soliq undiriladi.

Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbaida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

- dividendlar va foizlardan – 10 foiz;
- sug'urta mukofotlari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash – 10 foiz;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxta daromadi) – 6 foiz;

- royalti, ijara daromadlari, xizmat ko'rsatish, shu jumladan boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar – 20 foiz.

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendar va foizlar to'lov manbaida 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb, aksiyalardan va boshqa xo'jaliklar sub'ektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Kalendar yil soliq davridir. Yilning choragi hisobot davridir.

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarni kiritish orqali to'laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

3-Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

REJA:

- 3.1 Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq va uning o'ziga hosligi va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti.
- 3.2 Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi.
- 3.3 Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubi.
- 3.4 Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lov manbaida ushlab qolish. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirish jarayoni.

Tayanch so'zlar: Jami daromad tarkibi. Soliq deklaratsiyasi. Rezidentlar va norezidentlar. Tabaqalashtirilgan stavka.

3.1. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq va uning o'ziga xosligi va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko'ra soliqlar va boshqa yig'implarni o'z vaqtida, to'la hajmda to'lash fuqarolarning asosiy majburiyatlaridan ekanligi qayd etilgan. Har bir fuqaro o'z daromadlaridan qonunda belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lab borishlari kerakligi amaldagi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining boshqa me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining mohiyati, soliq munosabatlaridagi ahamiyati, soliq tizimida va davlat byudjetining daromadlaridagi salmog'ini nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda tahlil etish va o'rganish bugungi kun talabi hisoblanadi. Bugungi kunda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonlarini o'rganadigan bo'lsak amaldagi soliq tizimida jismoniy shaxslarning daromad solig'i ular to'laydigan soliqlar ichida eng salmoqli o'rinni egallaydi. Bugungi kunda jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar va yig'implar byudjet daromadlarining qariyb 15-20 foizini tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1991 yilda byudjet tushumlarining 6,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 16,1 foizni tashkil etgan.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish qiyin. Chunki bu soliq har bir soliq to'lovchi sub'ektining hayotida muhim rol o'ynaydi. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar milliy daromadni taqsimlashda davlatning, shu jumladan mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismini o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Milliy daromadning majburiy

ravishda safarbar qilingan bu qismi davlat moliya resurslarining bir qismiga, uning hayotiy faoliyatining asosiga aylanadi.

Barcha jismoniy shaxslar soliqqa tortish maqsadida ikki toifaga bo'linadi:

1. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
2. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan 12 oygacha bo'lgan, istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekiston Respublikasida yashagan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmish jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha daromad solig'i to'laydilar. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatidan olingan daromadlar bo'yicha soliq to'laydilar.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

3.2 Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlar;

rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);

ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

Mulkiy daromadlar

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi.

5) sanoat mulki ob'ektlariga, seleksiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar

1) yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan:

jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash;

kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

sanatoriya-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo'lgan boshqa xarajatlari;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;

3) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) hisoblab chiqarilgan qiymati o`rtasidagi salbiy tafovut;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo`l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo`yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summolari;

6) ish beruvchi tomonidan to`lovlar hisobiga to`lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo`lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to`lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Boshqa daromadlar

1) pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;

2) stipendiyalar;

3) fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg`armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

4) donorlik uchun pul mukofotlari;

5) alimentlar;

6) hayvonlarni (qoramol, parranda, mo`ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so`yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

7) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo`yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

8) musobaqalarda, ko`riklarda, tanlovlarda sovrinli o`rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

9) yutuqlar;

10) grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo`yicha olingan summalar;

11) jamg`arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo`yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg`arib boriladigan pensiya to`lovlari;

12) yaratilgan fan, adabiyot va san`at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;

13) O`zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo`lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo`la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg`alarining qiymati, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O`zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo`la beriladigan pul mukofoti;

14) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o`rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo`la beriladigan pul mukofoti;

15) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

16) moddiy yordam tariqasida;

17) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

18) ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan to'lovlar;

19) sug'urta to'voni summalari;

20) ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pul to'lovlari.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016
yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga 9-
ILOVA**

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
STAVKALARI**

<i>Soliq solinadigan daromad</i>	<i>Soliq stavkasi</i>
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	daromad summasining 0 foizi
eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqi miqdorining bir baravaridan oshadigan summaning 7,5 foizi
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summaning 17 foizi
eng kam ish haqining o'n baravaridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summaning 23 foizi

Izohlar:

1. *Soliq solinadigan daromadlar guruhlarini bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga - 2017 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (149 775 so'm) kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.*

2. *Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi).*

3. *Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, byudjetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan «0» stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad (eng kam ish haqining bir baravari) chegirilgan holda 1% miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.*

4. *Qonun hujjatlariga muvofiq eng kam stavka bo'yicha soliq solinadigan jismoniy shaxslarning alohida daromadlariga soliq solish maqsadi uchun eng kam stavka 7,5 foiz miqdorida qabul qilinadi.*

3.3 Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubi.

Imtiyozlar:

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari:

favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari — to'raligicha;

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari — eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

Soliq Kodeksining 178-moddasida ko'rsatilgan boshqa hollarda, — soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda.

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari.

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni;

ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno.

12) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno.

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

17) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan — grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu badda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislari (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun

hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

21) olingan alimentlar;

22) fuqarolarning sug'urta to'lovi sifatida oladigan summalari;

23) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

25) davlat pensiyalari;

27) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

28) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

29) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga — yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari.

30) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan quruvchi shaxslar shuningdek ularning mazkur kreditlar bo'yicha birgalikdagi qarz oluvchi bo'lgan oila a'zolari tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.

Ushbu badda ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur badda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

31) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalari;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari;

32) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa;

33) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

34) aksiyadorlik jamiyatlari chet ellik xodimlarining boshqaruv xodimi sifatida o'z faoliyatidan olgan daromadlari.

Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilish

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summaları bo'yicha;

7) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga ega bo'lgan xodimlari — ularning xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar — ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha;

9) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida boʻlgan shaxslar — yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga koʻra bajargan ishlari uchun olgan daromadlari boʻyicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining toʻrt baravari miqdoridagi daromadlar boʻyicha) ozod qilinadi:

1) «Oʻzbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor boʻlgan shaxslar, uchala darajadagi SHuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar.

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar.

5) bolalikdan nogiron boʻlib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining maʼlumotnomasi asosida beriladi;

7) sobiq SSSRni, Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chogʻida yaralanganligi, kontuziya boʻlganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda boʻlish bilan bogʻliq kasallik tufayli halok boʻlgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Sobiq SSSRni, Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chogʻida yoki frontda boʻlish bilan bogʻliq kasallik tufayli halok boʻlgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan oʻtmagan taqdirda beriladi;

10) ikki va undan ortiq oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalari bor yolgʻiz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tomonidan taqdim etiladigan maʼlumotnoma asosida beriladi;

11) ikki va undan ortiq oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalari bor va boquvchisini yoʻqotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar.

12) bolaligidan nogiron boʻlgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri.

HISOBLAB CHIQRISH USLUBIYOTI;

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qoʻllash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun boʻyicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi summasini, shuningdek eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1 yanvaridagi holati inobatga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun boʻyicha

har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summolari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i **belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi**. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o'z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi bo'yicha ushlab qolish to'g'risida ariza bersa, daromadlar to'layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini imtiyozlarni qo'llamagan holda eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qoladilar.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq solish

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi,

O'zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs, mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlari qoidalaridan qat'i nazar, belgilangantartibda va muddatlarda daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etadi.

3.4 Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lov manbaida ushlab qolish. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirish jarayoni.

To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda, ish haqi bo'yicha oyning birinchi yarmi uchun bo'nak (avans) olish uchun hujjatlar taqdim etilganda soliqni to'lash amalga oshirilmaydi;

to'lov natura holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar etarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi.

Jismoniy shaxsning — O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi daromadlar manbaidan olingan, daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

dividendlar va foizlarga — 10 foiz;

xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) — 6 foiz;

mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlarga,— 20 foiz.

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

4-Mavzu: Qo`shilgan qiymat solig`i

REJA:

4.1 O`zbekistonda qo`shilgan qiymat solig`i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati.

4.2 Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari tarkibi, qo`shilgan qiymat solig`ining soliq solish ob`ekti va uning tarkibi. Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari.

4.3 Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari hamda import qilinadigan ishlar va xizmatlarga qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash tartibi.

**Tayanch so`zlar:** Qo`shilgan qiymat solig`ini ob`ekti va bazasi. Qo`shilgan qiymat. Tovarlar importi va exportida qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash.

4.1 O`zbekistonda qo`shilgan qiymat solig`i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati.

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo`shilgan qiymat solig`i bilan to`ldirish g`oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo`shilgan qiymat solig`i ilk bor Germaniyada 1919 yilda ***Bilgelm fon Simens*** tomonidan «Beredelte Umsatzsteuer» nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilgan. Bu soliq turi ilk bor qo`shilgan qiymat solig`i nomi bilan frantsuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954 yilda taklif qilingan va 1960 yilda Kot-d-Ivuar Respublikasi joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan¹.

Dunyo mamlakatlarida qo`shilgan qiymat solig`i undirish tartibi dastlab 1954 yilda frantsuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog`liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

O`zbekiston Respublikasida qo`shilgan qiymat solig`i 1992 yilda joriy etilgan bo`lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo`lib 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to`g`risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992 yil 30 martdagi «Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash va to`lash tartibi to`g`risidagi» yo`riqnoma hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992 yilda dastlab qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan. Qo`shilgan qiymat solig`i egri (bilvosita) soliq bo`lib, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish, sotish jarayonida qo`shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratilishidir. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o`rniga aksiz solig`i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig`idan farqli ravishda faqat qo`shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig`i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo`shilgan qiymat solig`i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko`p qirrali bilvosita soliqdir. Korxona

¹ Toshmatov SH.A., Komilov A.A. Qo`shilgan qiymat solig`i. Iqtisodiyot va huquq dunyosi. -T.:2004. 16-bet.

kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot etkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning ob'ekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. 2016 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 23 foizni, egri soliqlar tarkibida esa 53 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar qo'shilgan qiymat solig'ini byudjet daromadlarining asosiy manbai ekanligini bildiradi.

4.2 Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi, qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti va uning tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;

2) zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs;

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari,

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI;

A) soliq solinadigan oborot;

B) soliq solinadigan import.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) **realizatsiya qilish oboroti** deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan:

tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish);

ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa;

mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish),

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlarini bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

4) to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

7) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarini bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Soliq solinadigan import

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir,

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Soliq solinadigan baza, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlarni qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek ob'ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarining, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan

qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo`lishi mumkin emas.

Aktsiz to`lanadigan tovarlar bo`yicha soliq solinadigan bazaga aktsiz solig`ining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`i summasini ham o`z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o`rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`i summasini o`z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o`rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to`lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo`shilgan qiymat solig`ini o`z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir.

Qurilishi tugallanmagan ob`ekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`i summasini ham o`z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan ob`ektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o`rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo`yicha xizmatlar ko`rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo`shilgan qiymat solig`i summasini ham o`z ichiga oladigan, ko`rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo`lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko`rsatish bo`yicha boshqa shartnoma asosida o`zga shaxsning manfaatlarini ko`zlab xizmatlar ko`rsatilgan taqdirda, qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha soliq solinadigan baza qo`shilgan qiymat solig`i summasini ham o`z ichiga oladigan, ko`rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo`lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Benzin, dizel yoqilg`isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo`shilgan qiymat solig`i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari 20 foiz miqdorida belgilangan.

4.3 Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari hamda import qilinadigan ishlar va xizmatlarga qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash tartibi.

Soliq solinadigan oborotlar bo`yicha qo`shilgan qiymat solig`i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to`lanishi lozim bo`lgan qo`shilgan qiymat solig`i soliq solinadigan oborot bo`yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo`yicha qo`shilgan qiymat solig`ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

HISOBOT DABRI;

qo`shilgan qiymat solig`i to`laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar uchun — bir oy.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa — yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to`lovchilar, bundan kredit va sug`urta tashkilotlari mustasno, qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha hisobvaraqa-fakturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to`lovchilar, bundan kredit va sug`urta tashkilotlari mustasno, qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha hisobvaraqa-fakturalar reestrlarini taqdim etadi.

TO`LASH TARTIBI.

Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash quyidagicha amalga oshiriladi:

qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchisi bo`lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — qo`shilgan qiymat solig`i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga ishlar, xizmatlarni import qiluvchi yuridik shaxslar ana shu import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga muvofiq respublika hududiga import qilinadigan ishlar va xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i ishlar, xizmatlar bajarilganligi dalilini tasdiqlovchi hujjatlar (dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki boshqa hujjatlar) asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$Sqqs = S \times N/100,$$

bu erda:

Sqqs - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

S - dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki boshqa hujjatlarga ko'ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;

N - qo'shilgan qiymat solig'ining foizdagi stavkasi.

Realizatsiya qilinadigan joyi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan import qilinadigan ishlar, xizmatlar import qilinadigan ishlar, xizmatlar deb tan olinadi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi import qilingan ishlar va xizmatlar ozod qilinadi:

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar (bitimlar) bo'yicha xalqaro va hukumatga qarashli xorijiy moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar bergan qarzarlar va grantlar hisobiga yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan ishlar, xizmatlar;

- byudjet tashkilotlari buyurtmalari bo'yicha byudjet mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan ishlar va xizmatlar;

Soliq kodeksi amalga kiritilguniga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida soliq to'lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugaguniga qadar saqlanib qoladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 (yigirma) foiz stavka bo'yicha to'lanadi.

Bajarilgan ishlar, xizmatlar dalili tasdiqlangan kundagi Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblangan ishlar, xizmatlar qiymatidan kelib chiqqan holda amalda ishlar bajarilganini, xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida import qilinadigan ishlar va xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i milliy valyuta (so'm)da hisoblab chiqariladi.

Montaj qilish, ishga tushirish, sozlash, maslahatlar, o'qitish va boshqa ishlar, xizmatlarga doir import qilinadigan ishlar va xizmatlarga, olib kelinadigan uskunalarga doir xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i tuzilgan shartnomalar

(kontraktlar)ga muvofiq belgilangan mazkur ishlar, xizmatlarning qiymati asosida hisoblab chiqariladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovi ana shu ishlar, xizmatlarni import qiluvchi shaxs yozib bergan hamda unda "import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi to'lovi" degan yozuv bitilgan to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i amalda ishlar, xizmatlar bajarilgan kundan boshlab 5 kun ichida byudjetga to'lanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i faqatgina milliy valyuta - so'mda to'lanadi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi ishlar, xizmatlar importi amalga oshirilgan hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasi dan kechiktirmasdan, belgilangan shaklda oylar bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Import tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bo'lib, bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aktsiz solig'i summasi (aktsiz osti tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{Qqs} = \frac{(IQTbQ + BBS + AS) \times QQS_{st}}{100};$$

Bu erda:

S_{Qqs} – qo'shilgan qiymat solig'i summasi

$IQTbQ$ – Import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymati;

BBS – Bojxona boji summasi;

AS – aktsiz solig'i;

QQS_{st} – qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizli stavka bo'yicha to'lanadi.

Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

5-Mavzu: Aktsiz solig'i.

REJA:

- 5.1 Aktsiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rnini va O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i.
- 5.2 Aktsiz solig'i to'lovchilarining tarkibi, aktsiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aktsiz solig'i stavkalari.
- 5.3 O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan aktsizosti mahsulotlariga qo'llaniladigan soliq stavkalari.
- 5.4 Aktsiz solig'ini hisoblash, aktsiz solig'ini hisobga olish tartibi va aktsiz solig'ini to'lash muddatlari.
- 5.5 Import qilinadigan aktsizosti mahsulotlaridan soliq undirish tartibi. Aktsiz markalari va ularni qo'llash tartibi.

Tayanch so'zlar: Aktsiz solig'i. Aktsiz markasi. Aktsizli tovarlar. Advalor va xos stavkalar.

5.1 Aktsiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rnini va O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i.

O'zbekistonda aktsiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aktsiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aktsiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Aktsiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi. Aktsiz solig'i Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi, jumladan, davlat byudjetining solikli daromadlari tarkibida 2000 yilda 22,8 foizni, 2001 yilda 26,3 foizni, 2002 yilda 28,8 foizni, 2003 yilda 31,1 foizni tashkil etgani holda 2016 yilgi davlat byudjeti daromadlarida uning ulushi 25 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan.

5.2 Aktsiz solig'i to'lovchilarining tarkibi, aktsiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aktsiz solig'i stavkalari.

Aktsiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig'i solinadigan tovarlarni (aktsiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;

oddiy shirkat aktsiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI

- 1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish.
- 2) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;
- 3) aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) topshirish;
- 4) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish;
- 5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aktsiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;
- 6) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

- 1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga;
- 2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;
- 3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:
O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;
davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;
O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga.
- 4) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga.
- 5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha realizatsiya qilingan aktsiz

to'lanadigan tovarlarning aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

- aktsizlanadigan tovarlarni eksportga etkazib berish, bundan O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim tovarlar ro'yxati mustasno;
- salomas va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarishda foydalaniladigan paxta yog'ini etkazib berish;

Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar xajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.²

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi.

Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

² O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida" gi Qonuni, 20-modda.

Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xom-ashyoni qazib olish xajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xom-ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.³

Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. SHuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun aktsiz soliqlari ham amal qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz xududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagi mineral xom-ashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xom-ashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSH dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi "Er osti boyliklari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning xajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O'zbekistonda 2002 yil 13 dekabrda "Er osti boyliklari to'g'risida" gi Qonunning yangi taxriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo'lib, yer osti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklarining 53 turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, byudjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdagi yer osti boyliklariga mutloq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda.

Er qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

³ O'sha yerda.

er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
qo'shimcha foyda solig'i;
bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Soliq to'lovchilar

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

er qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

6.2 Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti va soliqning stavkalari. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarning qo'llanilish tartibi.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI

Kavlab olingan (ajratib olingan) **tayyor mahsulotning** hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ektidir. **Tayyor mahsulotlar** ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) **tayyor mahsulot** deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlodan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga **qayta haydab kiritiladigan** tabiiy gaz hajmi **soliq solish ob'ekti bo'lmaydi**.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ektidir.

YUqoridagilardan tashqari, quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish ob'ektidir:

kavlab olingan (shu jumladan qo'shib chiqadigan) foydali qazilmalar;

foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;

Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun **o`rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.**

Hisobot davri uchun o`rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman **realizatsiya qilinmagan taqdirda**, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o`rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o`rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

SOLIQ STABKASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil
27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga 15-ILOVA

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

<i>Soliq solinadigan ob'ekt nomi</i>	<i>Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olinishi uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Er ostidan kavlab olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
Rangli va noyob metallar:	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	4,0
Bolfram konsentrat	10,4
Uran	10,0**
Asl metallar:	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24,0
Qora metallar:	
Temir	4,0
Kon-kimyo xom ashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfati	3,5
Fosforitlar (grafitlarga)	5,0
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xom ashyosi:	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9***
Kvarts-dala shpati xom ashyosi	6,5
SHisha xom ashyosi	3,0
Bentonitli gil	4,8
Talk va talk toshi	4,0

Talkomagnezit	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7
Bollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Barit kontsentrati	4,0
Metallurgiya uchun noruda xom ashyo:	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gili	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvarts va kvartsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Bermikulit	4,0
Noruda qurilish materiallari:	
TSement xom ashyosi	5,0
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5,0
Marmar ushog'i	5,0
Gips toshi, ganch	5,0
Keramzit xom ashyosi	5,0
G'isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5,0
Gips va angidrit	5,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5,0
Qurilish qumlari	5,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	5,0
Qumtoşlar	5,0
Chig'anoq, ohaktosh	5,0
Slanetslar	5,0
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5,0
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani kavlab olganlik uchun stavkaning 30%i

**) Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan tabiiy gazni realizatsiya qiladigan korxona tomonidan to'lanadi.*

***) «Navoiy KMK» DK uranni kavlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda to'laydi.*

****) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mahsulotlarning realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha belgilangan stavkalarda to'lanadi.*

QO'SHIMChA FOYDA SOLIG'I

Soliq to'lovchilar

ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;

foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan boshqa shaxslar qo'shimcha foyda solig'i to'lovchisi etib belgilanishi mumkin.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Soliq solish ob'ekti

Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda solig'ini solish ob'ektidir.

Soliq solinadigan baza

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir.

BONUSLAR 252 modda

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdir.

Er qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdagi bonuslarni to'laydi:

imzoli bonus;

tijoratbop topilma bonusi.

Imzoli bonus

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbop topilma bonusi

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni **qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir.** Tijoratbop topilma bonusi, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olishda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Bakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish Ob'ektidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati quyidagicha hisoblab chiqiladi:

Tovar bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat reestriga kiritilgan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun — foydali qazilmaning mazkur turi uchun tasdiqlangan deklaratsiya qilingan narxi bo'yicha;

boshqa yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xalqaro birjada belgilangan birja narxi bo'yicha, jahon bozorida narx mavjud bo'lmagan taqdirda esa, foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati — vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan narx bo'yicha.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymatini aniqlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tijoratbop topilma **bonusining hisob-kitobi** soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlagan kundan e'tiboran **yigirma besh kundan kechiktirmay** soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilma **bonusini to'lash** vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarining kondan qazib olinadigan hajmini tasdiqlagan kundan e'tiboran **to'qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.**

**Imzolanadigan bonus
STAVKALARI**

<i>N</i>	<i>Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi</i>	<i>Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda)</i>
1.	Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
2.	Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	1 000
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari, qidirish va razvedka qilish huquqi	500
5.	Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	100

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016
yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga
16-2-ILOVA

**Tijoratbop topilma bonusi
STABKASI**

<i>Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi</i>	<i>Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1

Izoh: Tijoratbop topilma bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijoratbop topilma bonusini 3 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash ko'rinishidagi imkoniyat berilishi mumkin.

Ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i STAVKALARI

<i>Mahsulot nomi</i>	<i>Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aktsiz solig'isiz)</i>	<i>Soliq stavkasi</i>
Katodli mis*	so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 tonna uchun 4 600 AQSH dollaridan yuqori	50 foiz
Tabiiy gaz*	so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 000 kub m uchun 160 AQSH dollaridan yuqori	
Polietilen granulalar*	1 tonna uchun 1 870 000 so'mdan yuqori	
TSement**	1 tonna uchun 125 000 so'mdan yuqori	
Klinker**	1 tonna uchun 105 000 so'mdan yuqori	

*) Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o'tkazadilar. Ko'rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda amalga oshirish uchun ma'qullangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

**) Oq tsement, shuningdek muqobil yoqilg'i - ko'mir asosida ishlab chiqarilgan tsement va klinkerdan tashqari.

Izohlar:

1. Qo'shimcha foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

2. Tabiiy gaz bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lib tabiiy gazni eksportga realizatsiya qiladigan, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish ob'ekti yuzaga keladigan yuridik shaxslar (mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlar va investorlar bundan mustasno) hisoblanadi.

3. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) rentabellikning 20 foizlik darajasidan oshadigan foyda summasidan 50%lik stavkada yuridik shaxslar foydasidan olinadigan soliqni to'laydilar.

6.3 Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish muddatlari.

HISOBLAB CHIQARISH TARTIBI;

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

SOLIQ DABRI;

Kalendar yil soliq davridir.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Hisobot davri quyidagilardir:

yuridik shaxslar uchun — yil choragi;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan — ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

jismoniy shaxslar tomonidan — yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

TO'LASH TARTIBI

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan — hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

6.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning huquqiy asoslari.

O'zbekiston sharoitida suv qadrli hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq ho'jaligi asosan sug'oriladigan erlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1982 yildan 1998 yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar "suv uchun to'lov" to'lashar edi. Iste'molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda 744-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida to'liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga o'tkazildi.

6.5 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti va uni aniqlash tartibi hamda soliqning stavkalari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi.

Soliq to'lovchilar

O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

Notijorat tashkilotlar. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI;

Er usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'ektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontaal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob'ektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadi.

Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

YAgona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, YUridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan erlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

SOLIQ STABKASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016
yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga
14-ILOVA

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

№	To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)	
		Er usti suv resurslari manbalari	Er osti suv resurslari manbalari
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	85,4	108,5
2	Elektr stantsiyalari	24,7	36,7
3	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	46,9	60,6
4	Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar*:		
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	13800	13800
	- boshqa maqsadlarda	85,4	108,5

*) Mazkur korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni soliq solish tizimidan (soliq solishning umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tartibi) qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan tartibda to'laydilar.

Imtiyozlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

2) suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar — tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1) sogʻliqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmogʻida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof muhitga zararli taʼsir koʻrsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qaʼriga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

6) qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan shoʻrlangan erlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

6.6 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga toʻlash muddatlari va soliq boʻyicha soliq hisob-kitoblarini topshirish muddatlari.

HISOBLAB CHIQRISH TARTIBI;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xoʻjaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

SOLIQ DABRI;

Kalendar yil soliq davridir.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv isteʼmoli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga bir marta taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xoʻjaligi korxonalari bundan mustasno) — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

yagona yer soligʻini toʻlashga oʻtmagan qishloq xoʻjaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15 dekabrigacha;

Oʻzbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan Oʻzbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 25 yanvarigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlash toʻgʻrisidagi toʻlov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon

xo`jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

TO`LASH TARTIBI.

Soliq davri mobaynida soliq to`lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha **joriy to`lovlarni** to`laydilar, *bundan yagona yer solig`ini to`lashga o`tmagan qishloq xo`jaligi korxonalari, O`zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O`zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo`jaliklari mustasno.*

**Joriy to`lovlar** miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to`lovchilar joriy soliq davrining 25 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro`yxatidan o`tkazilgan kundan e`tiboran o`ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste`moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo`ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to`g`risidagi ma`lumotnomani taqdim etadilar.

Hisoblab chiqarilgan joriy to`lovlar quyidagicha to`lanadi:

soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining **ikki yuz baravaridan ko`pni** tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (mikrofimalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — **har oyning 25-kunidan kechiktirmay** suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o`n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining **ikki yuz baravaridan kamni** tashkil etadigan mikrofimalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofimalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — yilning har choragi **uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay** suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining **to`rtidan bir qismi** miqdorida.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha joriy to`lovlar summasi hisob-kitobga ko`ra byudjetga to`lanishi lozim bo`lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to`lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo`jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to`lash **yiliga bir marta**, soliq davridan keyingi yilning **1 mayigacha** amalga oshiriladi.

**7-Mavzu: YUridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq.
YUridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.**

REJA:

7.1 O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati va mol-mulk solig'ini unidirishning huquqiy asoslari.

7.2 Mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan mol-mulk bo'yicha o'rtacha qoldiq qiymatni aniqlash uslubiyati. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar.

7.3 Soliqni hisoblash va to'lash muddatlari.

7.4 Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari.

7.5 Yer solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq solish ob'ekti, soliq solinaigan baza va soliq stavkalari.

7.6 Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va uni byudjetga to'lash tartibi hamda muddatlari.

7.7 Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

Tayanch so'zlar: Soliq solish ob'ekti, bazasi va stavkasi. Mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati. Tugallanmagan qurilish.

7.1 O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati va mol-mulk solig'ini unidirishning huquqiy asoslari.

O'zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo'lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo'ldi. Mol-mulk solig'i dastlab, O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida" gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to'lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy xujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad *birinchidan*, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning ma'naviy va jismoniy

tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. SHuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining solikli daromadlarida 2,3 – 4,5 foiz oralig'ini tashkil etmoqda

7.2 Mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqla tortiladigan mol-mulk bo'yicha o'rtacha qoldiq qiymatni aniqlash uslubiyati. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar.

Soliq to'lovchilar

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar **bo'lmaydi:**

notijorat tashkilotlar.

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI;

1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

3) tugallanmagan qurilish ob'ektlari. Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

asosiy vositalar bo'yicha — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

YUridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining 1 yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo'shishdan olingan summani hamda hisobot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo'lish orqali quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\begin{array}{l} \text{Мол - мулкнинг ўртача} \\ \text{йиллик қолдиқ қиймати} \end{array} = \frac{\frac{1\text{январ}}{2} + 1\text{феврал} + 1\text{март} + \dots + 1\text{декабр} + \frac{1\text{январ}}{2}}{12}$$

Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida korxona balansiga kirim qilinsa, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblashda to'liq oy deb qabul qilinadi, agarda mol-mulk oyning ikkinchi yarmida balansga kirim qilingan bo'lsa, unda mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kundan boshlab hisoblanadi.

SOLIQ STABKASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga
18-ILOVA

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq STABKASI

<i>No</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Yuridik shaxslar	5
2	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, bundan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrda PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari mustasno*:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

*) Belgilangan (me'yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi.

Izohlar:

Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavkada to'lanadi.

«CAP» aviakompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha modernizatsiyalashdan o'tgan aeroportlar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni 5 yil mobaynida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasiga 0,4 pasaytiruvchi koeffitsientni qo'llagan holda to'laydilar.

Imtiyozlar

soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) **kamaytiriladi**:

1) kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash

tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

5) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;

8) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning.

9) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

10) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

12) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;

13) shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

14) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

15) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

16) ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarining.

YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari.

4) yangi tashkil etilgan korxonalar — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida.

5) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

7.3 Soliqni hisoblash va to'lash muddatlari.

HISOBLAB CHIQRISH TARTIBI;

YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi — O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

SOLIQ DABRI;

Kalendar yil soliq davridir.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

TO'LASH TARTIBI.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rt dan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanishi kerak.

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ (272-277 moddalar)

Soliq to'lovchilar

Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish Ob'ektidir.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektni bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Imtiyozlar

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan **soliq solinmaydi**:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi SHuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning.

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning.

5) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

6) I va II guruh nogironlarining.

7) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari otalarining va beva xotinlarining (beva erlarining).

3, 5 va 6-bandlarda ko'rsatilgan imtiyozlar qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida beriladi.

Mazkur imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

SOLIQ STABKASI:

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda
PQ-2699-son qaroriga
19-ILOVA

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq STAVKALARI

<i>N^o</i>	<i>Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi</i>	<i>Soliq stavkasi, mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan %da*</i>
1	Turar joylar, kvartiralar (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1,7
2	SHaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	2,1
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	2,9
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metr dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralar	2,1

*) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning inventarizatsiya qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 3 000 ming so'mdan kam bo'lmashligi kerak.

Izohlar:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 20 328,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 8 833,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob'ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ular yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fondi toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

SOLIQ DABRI;

Kalendar yil soliq davridir.

HISOBLAB CHIQRISH TARTIBI;

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

TO'LASH TARTIBI.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

7.4 Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari.

1990 yilda O'zbekistonda "Er to'g'risida" qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra erga egalik qilish va erdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.

1991 yilda “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to’g’risida”, 1993 yilda “Er solig’i to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig’ini undirishda soliqqa tortish ob’ekti, sub’ektlari, soliq bo’yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to’lash tartiblari ko’rsatib berildi. 1997 yilda “Soliq kodeksi”ning qabul qilinishi hamda 1998 yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig’ining to’laqonli huquqiy asoslari yaratildi.

Er solig’i O’zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig’imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Er solig’i boshqa soliq turlaridan farqli o’laroq, o’ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, o’zining iqtisodiy mohiyatiga ko’ra u renta to’lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va erdan foydalanuvchi xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog’liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad – erdan oqilona foydalanishni rag’batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo’lgan erlarda xo’jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta’minlash hamda erni talon-taroj qilinishiga yo’l qo’ymaslik hisoblanadi.

7.5 Yer solig’ini to’lovchilari tarkibi, soliq solish ob’ekti, soliq solinadigan baza va soliq stavkalari.

Soliq to’lovchilar. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo’lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O’zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig’ini to’lovchilaridir.

Ko’chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig’ini to’lovchi bo’ladi.

Quyidagilar yer solig’ini to’lovchilar bo’lmaydi:

notijorat tashkilotlar.

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxsla

SOLIQ SOLISH OB’YEKTI;

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo’lgan yer uchastkalari soliq solish ob’ektidir.

Quyidagilarga soliq solish ob’ekti sifatida qaralmaydi:

-aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari: maydonlar, ko’chalar, tor ko’chalar, yo’llar, sug’orish tarmog’i, sohil bo’yi erlari va boshqa shu kabi erlar;

-aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan erlar (daraxtzorlar, bog’lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan erlar);

-kommunal-maishiy ahamiyatga molik erlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig’ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

-zaxira erlar.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Er uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari (imtiyozlar, quyida!) maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga boʻlgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq toʻlovchiga oʻtgan boʻlsa, oʻsha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan eʼtiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan eʼtiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer soligʻi boʻyicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan eʼtiboran kamaytiriladi. Yer soligʻi boʻyicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan eʼtiboran hisoblab chiqariladi (koʻpaytiriladi).

STABKA;

Er soligʻining stavksi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi.

Er uchastkasi mulkdorining, yer egasi, erdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xoʻjaligi erlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer soligʻi erning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar boʻyicha yuridik shaxslar tomonidan toʻlanadi.

SHaharlar va shaharchalarning maʼmuriy chegaralarida joylashgan qishloq xoʻjaligi ahamiyatiga molik erlar uchun yer soligʻi qishloq xoʻjaligi erlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida toʻlanadi.

7.6 Yer soligʻi boʻyicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va uni byudjetga toʻlash tartibi hamda muddatlari.

Imtiyozlar

Er soligʻi toʻlashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) madaniyat, taʼlim, sogʻliqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari — oʻz zimmlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamgʻarmasi va «Oʻzbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida boʻlgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, taʼminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda boʻlgan xodimlar kiritiladi;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subʼektlari — yuridik shaxslarni davlat roʻyxatidan oʻtkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish toʻgʻrisida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan eʼtiboran.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi erlar kiradi:

1) bog`dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo`llari, sug`orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa erlar), jamoa garajlarining erlari;

2) davlat qo`riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo`riqxonalarining, tabiat bog`larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo`riqxonalarining (ovchilik xo`jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo`riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog`larning erlari,

3) sog`lomlashtirish ahamiyatiga molik erlar (xo`jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo`lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik erlar (xo`jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) — aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan erlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik erlar (xo`jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo`riqxonalar, xotira bog`lari, sag`analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan erlar;

6) suv fondi erlari. Suv fondi erlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko`llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo`jaligi inshootlari egallagan erlar,

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan erlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko`rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, erga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan erlar;

9) madaniyat, ta`lim va sog`liqni saqlash ob`ektlari egallagan erlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo`llari egallagan erlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo`llar, shu jumladan tuproq ko`tarmasi, sun`iy inshootlar, liniya-yo`l binolari, temir yo`l aloqasi hamda elektr ta`minoti qurilmalari, inshootlar va yo`l qurilmalaridan iborat temir yo`llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo`l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan erlar;

12) shahar elektr transporti yo`llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan erlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog`lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog`lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o`quv-mashq bazalari egallagan erlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan erlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyaqa qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan erlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan erlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, erda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan erlar;

18) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan erlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob'ektlar egallagan erlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan erlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'ektlar egallagan erlar;

22) ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan erlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalar atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan erlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan erlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan erlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi erlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan erlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

HISOBLAB CHIQRISH TARTIBI;

Er solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Er solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

SOLIQ DABRI; Kalendar yil soliq davridir.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

TO'LASH TARTIBI.

Er solig'ini to'lash, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 sentyabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

7.7 Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

Soliq to'lovchilar

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Soliq solish ob'ekti

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob'ektidir:

- 1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- 4) xizmat yuzasidan berilgan chek erlar;
- 5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- 7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi, ushbu modda birinchi qismining 7-bandida ko'rsatilganlari bundan mustasno.

Soliq solinadigan baza

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek erlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Imtiyozlar

Er solig'idan quyidagilar ozod qilinadilar:

2) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi SHuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

4) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

7) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

10) shaxslar — ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha — yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek

jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar egallagan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan yer solig'i yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi .

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, yer solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Soliq davri

Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Er solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi.

Er solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Soliq to'lash tartibi

Er solig'i yer uchastkasining mulkdori, erga egalik qiluvchi, erdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi.

Er uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Er solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanish boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

8-Mavzu: Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.

REJA:

8.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbqiq etilishi va soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati.

8.2. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq.

8.3. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi. Yagona soliq to'lovining soliq ob'ekti. Yagona soliq to'lovi stavkalari.

8.4 Yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi.

8.5 Yagona yer solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi.

8.6 Soliq imtiyozlari va soliqni hisoblash va to'lash muddatlari.

8.7 Qat'iy belgilangan soliq va uning o'ziga hos xususiyatlari.

Tayanch so'zlar: Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi. Yagona soliq to'lovi. Yagona yer solig'i. Qat'iy belgilangan soliq.

8.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbqiq etilishi va soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati.

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida" gi qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxona hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

8.2. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab

chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona yer solig'ini to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq Kodeksining 58-bobida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Ushbu soliqlar ushbu jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rniga to'lanadi, soliq Kodeksining 349-moddasida sanab o'tilganlar bundan mustasno.

Soliq davri mobaynida, ushbu bo'limda nazarda tutilgan hollarda, soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilganda ayrim umumbelgilangan soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun, to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;

aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aktsiz solig'i;

er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

qonun hujjatlarida belgilangan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

bojxona to'lovlari;

yagona ijtimoiy to'lov;

davlat bojlari;

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini va yagona yer solig'ini to'lovchilar bundan mustasno);

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

8.3. YAgona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi. YAgona soliq to'lovining soliq ob'ekti. YAgona soliq to'lovi stavkalari.

Soliq to'lovchilar

YAgona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar,
- 2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:
savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.
- 3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yakka tartibdagi tadbirkor.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;

Soliq Kodeksining 57-bobiga muvofiq yagona yer solig'i va 58-bobiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi.

(O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi O'RQ-328-son qonuni
Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (yangi tahriri)
(5-modda. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari)

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari quyidagilardir:

- 1) *yakka tartibdagi tadbirkorlar*;
- 2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;
- 3) quyidagi tarmoqlardagi:
qonun hujjatlarida nazarda tutilgan engil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ikki yuz kishi;
metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bunda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kiradi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar, kafolatlar va huquqlar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan vakolatli organlarga va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlariga, davlat statistika organlariga, banklarga va boshqalarga) yozma ravishdagi murojaatlarsiz qo'llaniladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik sub'ektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrda e'lon qilinadi hamda doimiy ravishda yangilab boriladi.

O'zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik sub'ektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrini shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mikrofirma va kichik korxona xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik sonini oshirib yuborgan taqdirda, xodimlar sonini oshirib yuborishga yo'l qo'yilgan davr uchun ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferensiyalar, kafolatlar va huquqlardan mahrum etiladi. Ushbu qoida quyidagi hollarda tatbiq etilmaydi:

mikrofirma va kichik korxona O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarining, akademik litseylarining hamda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 50 foiz oshadigan bo'lsa. Xodimlar sonining oshirilishiga O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarining, akademik litseylarining va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'qishni tugallagan kunidan boshlab ko'pi bilan uch yil o'tgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi;

kichik korxona uyda ishlayotgan fuqarolar (kasanachilar) bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 30 foiz oshadigan bo'lsa.

Bunda:

xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalarida, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezonini qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

o'zi ishlab chiqargan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'lmagan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

tayyorlov faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Oilaviy korxona va umumiy ovqatlanish va savdo sohasidagilardan tashqari Mikrofirmalar va kichik korxonalar, yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI;

YAlpi tushum soliq solish ob'ektidir.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini, aktsiz solig'ini va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni chegirgan holda (ushbu soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun — tovar oboroti;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tayyorlov tashkilotlari uchun — realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum;

tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

12) ob'ekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ekting muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish ob'ektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Soliq Kodeksining 355-moddasiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar.

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar.

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

Soliq solinadigan baza quyidagilar uchun kamaytiriladi:

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

Ushbu hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi;

yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Imtiyozlar

YAgona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

SOLIQ STABKASI:

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda
PQ-2699-son qaroriga
10-1-ILOVA

**Mikrofimlar va kichik korxonalar uchun
(savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan
tashqari) yagona soliq to'lovi
STAVKALARI**

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-7-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	5*
2	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3	Lombardlar	30
4	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
5	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
6	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
7	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi)	30
8	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrda PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo tovarlari bundan mustasno:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

*) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

**) Haq summasi (yalpi daromad).

**Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari,
shu jumladan, mikrofirmalar va kichik
korxonalar uchun yagona soliq to'lovining
STAVKALARI**

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
	ulardan:	
	umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2	Chakana savdo korxonalari, 3 va 4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari:	
2.1	quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li erlarda	1
2.2	Joylashgan joyidan qat'i nazar:	
	alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'i va suyuq qazilgan gaz realizatsiyasidan tovar oboroti bo'yicha	4
3	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
4	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li erlarda	1

Izoh:

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va turli aholi punktlarida joylashgan, ular bo'yicha yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan bir nechta savdo shoxobchalariga ega bo'lsalar, ular har bir savdo shoxobchasi bo'yicha tovar oborotining alohida-alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalarda yagona soliq to'lovini to'lashlari lozim.

Ayrim toifadagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi STABKASI

<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
Lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida)	33

8.4 Yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi.

HISOBLAB CHIQRISH TARTIBI;

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

SOLIQ DABRI;

Kalendar yil soliq davridir.

SOLIQ HISOBOTINI TAQDIM ETISH TARTIBI;

Yil choragi hisobot davridir.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

TO'LASH TARTIBI.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

8.5 Yagona yer solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi.

Soliq to'lovchilar

Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo`jaligi mahsulotini etishtirish va o`zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo`jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo`lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo`jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o`zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo`lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo`jaligi mahsulotini etishtirish va o`zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo`jaligi mahsulotini o`z ichiga oluvchi qishloq xo`jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Quyidagilar yagona yer solig`ini to`lovchilar sifatida qaralmaydi:

o`rmon va ovchilik xo`jaliklari;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo`jaliklari.

Soliq solish ob`ekti

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo`jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish Ob`ektidir.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo`lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig`i bo`yicha imtiyozga bo`lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig`i bo`yicha imtiyozga bo`lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko`paytiriladi.

O`zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda
PQ-2699-son qaroriga
21-ILOVA

Yagona yer solig`i STABKASI

<i>To`lovchilar</i>	<i>Normativ qiymatga nisbatan stavka, foizlarda</i>
Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	0,95

Izoh:

Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining «O'zdaverloyiha» O'zbekiston davlat ilmiy-loyiha instituti tomonidan belgilanadi.

8.6 Soliq imtiyozlari va soliqni hisoblash va to'lash muddatlari.

Imtiyozlar

YAgona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

Soliq davri

Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

YAgona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

YAgona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Er uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

YAgona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:
hisobot yilining 1 sentyabrigacha — yillik soliq summasining 30 foizi;
hisobot yilining 1 dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

8.7 Qat'iy belgilangan soliq va uning o'ziga hos xususiyatlari.

Soliq to'lovchilar

faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi bo'ladi.

Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlar yoki yagona soliq to'lovi joriy etiladi.

SOLIQ STABKASI:

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda
PQ-2699-son qaroriga
11-ILOVA

Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI

№	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlik uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
				Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'yisunuvdagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	yuridik shaxslar	Эgallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,06	0,04
	Bozorlar balansidagi Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	yuridik shaxslar	Эgallagan maydon (1 kv.metr)	0,05	0,03	0,02
2	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkasi yil boshiga - 2017 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (149 775 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash sifatida qaraladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga
12-ILOVA**

**YAkka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq
STAVKALARI**

№	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
		Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Chakana savdo:			
	oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	6,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	5,0	4,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	6,5	3,0
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	5,0	3,0	0,5
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)	10,0	6,5	3,0
2	Maishiy xizmatlar	3,5	1,5	0,5
3	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non- bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0
4	Qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibdagi hunarmandchilik faoliyati	0,5		
5	Boshqa faoliyat turlari	2,0	1,5	1,0
6	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:			
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0		
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0		
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	4,0		

**) Uy xo'jaligi, shu jumladan, dehqon xo'jaligida parvarishlangan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so'yib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko'rinishda (manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish bundan mustasno.*

Soliq solishdan ozod etish soliq to'lovchi tomonidan mahalliy davlat hokimiyatining tegishli organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, sotilgan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari yil boshiga - 2017 yil 1 yanvariga belgilangan eng kam ish haqidan (149 775 so'm) kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Jismoniy shaxs:

a) bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliq to'laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joy bo'yicha to'laydi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat turlari amalga oshirilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yillik hajmda tegishli faoliyat turi bo'yicha bir yo'la qat'iy belgilangan soliqni undiradilar, bundan jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi dalili aniqlangan sanadan boshlab o'ttiz kun mobaynida uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan holatlar mustasno. Bunday jismoniy shaxsga hisoblab yozilgan yillik qat'iy belgilangan soliq summasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda ushbu davr uchun qat'iy belgilangan soliq bo'yicha kelgusidagi soliq majburiyatlari hisobiga o'n ikki oy mobaynida to'lash huquqi taqdim etiladi.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qaroriga 9-ildavda ko'rsatilgan soliq solish shkalasining eng kam stavkasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan ob'ektdir.

Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

Soliq davri — bir oy.

Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;

faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan — hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish ob'ekti o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

yuridik shaxslar tomonidan — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan YAngi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik sub'ekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi.

YAkka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

YAkka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq — suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aktsiz solig'i — aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

YAkka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan

o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilari quyidagilardir: chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, — yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

YAngi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik sub'ekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. YAkka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi.

9-Mavzu: Mahalliy soliqlar va yig`imlar. Ijtimoiy jamg`armalarga majburiy to`lovlar.

REJA:

9.1 Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning amal qilish hususiyatlari.

9.2 Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lovchilari tarkibi, soliq ob`ekti va soliqqa tortiladigan baza, soliq bo`yicha imtiyozlar hamda soliqni hisoblash va byudjetga to`lash tartibi.

9.3 Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to`lovchilar tarkibi. Soliq stavkalari va soliqni hisoblash tartibi. Soliq hisobini yuritish tartibi va uni to`lash muddatlari.

9.4 YAgona ijtimoiy to`lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga sug`urta badallarini to`lovchilar tarkibi, hisoblash va to`lash muddatlari. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug`urta badallarini hisoblab chiqarish va to`lashning o`ziga xos xususiyatlari

9.5 Byudjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to`lash tartibi.

9.6 Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar va yig`imlarni to`lovchilar tarkibi va ularni hisoblash tartibi hamda to`lash muddatlari.

9.7 Byudjetdan tashqari umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalar

**Tayanch so`zlar:** Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. Byudjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalar. Byudjetdan tashqari umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash jamg`armasi

9.1 Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning amal qilish hususiyatlari.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) mol-mulk solig`i;
- 2) yer solig`i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i;
- 4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko`rsatish huquqi uchun yig`im;
- 6) yagona yer solig`i (soddalashtirilgan tartibdagi soliq)

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lovchisi bo'lib O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i va yer solig'i O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig'imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni umumiy, qat'iy stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobi hisobvaraqlarida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar har bir turi bo'yicha yuritiladi. Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. SHuning uchun uning byudjeti ham soliqlari ham salmoqli bo'lishni talab etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, yer qat'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy

byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma etmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, ular byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy xokimiyat organlari asosan fuqarolarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ularning byudjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos.

SHuning uchun ham mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi va ulardan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar beriladi. (masalan, qo'shilgan qiymat solig'idan, aksiz solig'idan va boshqalar).

9.2 Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va soliqlarga tortiladigan baza, soliq bo'yicha imtiyozlar hamda soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Soliq to'lovchilar

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi mustasno;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza quyidagi summalarga kamaytiriladi:

olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga;

qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun — sof qo'shimcha foyda summasiga;

tekin olingan pul mablag'lari summasiga, agar ularni o'tkazib berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa;

joriy soliq davrida foydalanilganda xarajatlar vujudga kelmaydigan byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar summasiga.

sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovini (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar summasiga;

byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzning qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summasiga.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda
PQ-2699-son qaroriga
22-ILOVA

Mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan
STAVKALARI

№	<i>Soliqlar va yig'implarning turlari</i>	<i>Chegaralangan stavkalar</i>
1	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	sof foydaning 8%i

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchilar, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lash mazkur soliq bo`yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

9.3 Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to`lovchilar tarkibi. Soliq stavkalari va soliqni hisoblash tartibi. Soliq hisobini yuritish tartibi va uni to`lash muddatlari.

Soliq to`lovchilar

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to`lovchilar oxirgi iste`molchilarga benzin, dizel yoqilg`isi va gazni realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg`i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir.

Ushbu bo`limni qo`llash maqsadida:

avtomobillarga yoqilg`i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to`ldirish, avtomobillarga yoqilg`i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi;

oxirgi iste`molchilar deganda o`z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg`isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Soliq solish ob`ekti. Soliq solinadigan baza

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg`isi va gazni oxirgi iste`molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o`z ehtiyojlari uchun foydalanish soliq solish ob`ektidir.

Benzin, dizel yoqilg`isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan va o`z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan bazadir.

SOLIQ STABKASI:

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda
PQ-2699-son qaroriga
22-ILOVA

Mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan STAVKALARI

<i>Nº</i>	<i>Soliqlar va yig'implarning turlari</i>	<i>Chegaralangan stavkalar</i>
1	Quyidagilarning iste'moli uchun undiriladigan soliq*:	
	transport vositalari uchun benzin	1 litr uchun 465 so'm / 1 tonna uchun 617 700 so'm**
	transport vositalari uchun dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 465 so'm / 1 tonna uchun 565 000 so'm**
	transport vositalari uchun suyultirilgan gaz	1 litr uchun 230 so'm
	transport vositalari uchun siqilgan gaz	1 kub metr uchun 275 so'm

*) Ko'rsatib o'tilgan stavkalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliq stavkalarining qayta ishlashga berilgan benzin va dizel yoqilg'isi bo'yicha miqdorlari transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni hisobga olgan holda benzin va dizel yoqilg'isiga chakana narxlar doirasida shakllantiriladi. Bositachilik shartnomalari bo'yicha import qilinadigan qayta ishlashga berilgan xom ashyo asosida ishlab chiqariladigan benzin va dizel yoqilg'isi hajmi bo'yicha to'lovchilar, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

**) Avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin va dizel yoqilg'isi sotishda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun undiriladigan soliq 1 litr hisobidan kelib chiqib hisoblanadi, boshqa hollarda 1 tonna hisobidan kelib chiqib hisoblanadi.

Soliq davri

Yil choragi soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to'lash tartibi

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanilganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda

har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, hisob-kitob taqdim etiladigan erda har o'n kunda amalga oshiriladi.

9.4 YAgona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar tarkibi, hisoblash va to'lash muddatlari. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari

YAgona ijtimoiy to'lov O'zbekistonda 2004 yildan amal qilib kelinmoqda.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Soliq to'lovchilar: YAgona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar quyidagilardir:

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi,

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI

Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ektidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs — O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish ob'ektidir.

SOLIQ SOLINADIGAN BAZA;

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza Soliq Kodeksning 172-moddasiga (**Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar**)muvofiq to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi,

Soliq Kodeksini 306-moddasining ikkinchi qismida (*O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs*)ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi, biroq bu summa O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga doir xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Imtiyozlar

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi:

1) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun qonunda belgilangan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar.

7) quyidagi grant mablag'lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar:

davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'lari.

Yagona ijtimoiy to'lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to'lovlarga;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining

mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga.

aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan chet ellik xodimlarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlariga.

STABKA;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga
25-ILOVA

YAgona ijtimoiy to'lov STAVKALARI

<i>№</i>	<i>Soliq to'lovchilar</i>	<i>Soliq solinadigan bazaga nisbatan % stavkasi</i>
1.	Mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari	15*
2.	1-bandda nazarda tutilmagan boshqa to'lovchilar	25*

*) Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari.

YAgona ijtimoiy to'lov summasi belgilangan tartibga muvofiq davlat maqsadli jamg'armalari bilan O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o'rtasida quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari bo'yicha:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 14,8%

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga 0,1%

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga 0,1%

boshqa to'lovchilar bo'yicha:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 24,8%

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga 0,1%

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga 0,1%

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil oyi hisobot davridir.

YAgona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

YAgona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

YAgona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

YAgona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari

tomonidan yil yakunlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallariga doir hisob-kitob hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

YAgona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urta badallari soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, majburiy tartibda quyidagicha to'lanadi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) — oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida;

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan — oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan mustasno) — oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

YUridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligining boshlig'i sug'urta badallarini majburiy tartibda, boshqa a'zolari esa, ixtiyoriylik asosida to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

YOshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironi bo'lgan shaxslar uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan — hisobot yilining 1 oktyabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

YAngi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor

sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash majburiyati quyidagilarning:

yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun — oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining;

yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun — ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar sug'urta badallarini jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, sug'urta badallarini to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy ravishda to'laydi.

YAngi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddatlarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning sug'urta badallarini to'lash bo'yicha majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Sug'urta badallarini to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Agar faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini davlat soliq xizmati organiga belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha sug'urta badallarini hisoblash to'xtatilmaydi.

9.5 Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi.

Soliq to'lovchilar

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs;

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning **to'lovchilari bo'lmaydi**:

notijorat tashkilotlar,

yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar.

umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aktsiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

SOLIQ SOLISH OB'YEKTI va SOLIQ SOLINADIGAN BAZA

Sof tushum byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir. (***sof tushum** — tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;*)

Soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarining buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari daromadi;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari
Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Umumta'lim
maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot
muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash
jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish
OB'EKTLARI**

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Ajratmalar solish ob'ekti</i>
1	Bositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2	Tayyorlov tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3	«O'zdonmahsulot» AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari)	QQS chegirilgan holda ustama va chegirma
4	Kredit va sug'urta tashkilotlari	Daromad
5	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad
6	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv ta'minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun - suvning xarid qiymatini chegirgan holda
7	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
8	Tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni sotish qismida «O'zbekenergo» DAK va uning korxonalari, «O'zbekneftgaz» MXK korxonalari	mahsulot realizatsiyasi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa - pirovard iste'molchiga realizatsiya qilish hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
9	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq to'lovchilar	mahsulot realizatsiyasi hajmi, QQS, aktsiz solig'i hamda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliqni chegirgan holda
10	Boshqa to'lovchilar	mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda

Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlari bilan oldin berilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tatbiq etiladi.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

Soliq Kodeksining 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar (ya'ni, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi);

hayotni sug'urtalash sohasiga taalluqli shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalari;

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

SOLIQ STABKASI:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 1,6 foiz miqdorida belgilangan.

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish va ularni to'lash tartibi

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari

bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay to'lanadi.

9.6 Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'implarni to'lovchilar tarkibi va ularni hisoblash tartibi hamda to'lash muddatlari.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Soliq to'lovchilar

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs;

Quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar;

umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aktsiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza

Cof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko`rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo`yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo`yicha hamda vositachilik xizmatlari ko`rsatishga oid boshqa shartnomalar bo`yicha vositachilik xizmatlari ko`rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko`rsatilgan xizmatlar uchun qo`shilgan qiymat solig`i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug`urta tashkilotlari uchun — agar mazkur moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo`lmasa, soliq Kodeksining 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo`lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo`yicha foizli daromad summasi.

Quyidagilarga soliq solish ob`ekti sifatida qaralmaydi:

soliq Kodeksining 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar;

hayotni sug`urtalash sohasiga taalluqli shartnomalar bo`yicha sug`urta mukofotlari (badallari), qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha topshirilgan to`lovlar summalari, shuningdek soliq Kodeksi 150-moddasining 2 va 4-bandlarida ko`rsatilgan daromadlar.

Soliq to`lovchilar turli xil soliq solish ob`ektlariga ega bo`lgan hollarda, ular soliq solish ob`ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob`ektlardan kelib chiqqan holda Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalarni to`lashi shart.

STABKA: O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 1,4 foiz miqdorida belgilangan.

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to`lash tartibi

Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi.

Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to`lanadi:

Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar to`lovchi bo`lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlarning turlari

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Soliq to'lovchilar

Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir.

Soliq solish ob'ekti

Yig'imlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Imtiyozlar

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

4) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari — yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (engil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar — qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

6) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar — avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini 3—5-bandlarda ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

STABKA:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil
27 dekabrda PQ-2699-son qaroriga 24-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga
yig'imlar va ajratmalar
STAVKALARI**

<i>N^o</i>	<i>Yig'imlar va ajratmalar turlari</i>	<i>Yig'imlar stavkalari</i>
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilishdan yig'imlar	AQSH dollarida
1	O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig'im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig'imlar:	
	bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
	yuk avtotransport vositasi va avtobus O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan 3 sutkadan oshgan har bir kun uchun	70
	yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o'tganlik uchun	90
3	O'zbekiston Respublikasi hududiga Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig'imlar, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun	300

4	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar	300
5	O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turlari bo'yicha:	
	quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko'p	150
	o'rindiqlar soni quyidagicha bo'lgan avtobuslar:	
	12 o'rindiqqacha	25
	13 o'rindiqdan 30 o'rindiqqacha	50
	30 o'rindiqdan ko'p	100
	tranzit o'tayotgan engil avtotransport vositalari	30
	tranzit o'tayotgan mototsikllar	15
II	Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida to'lanadigan yig'im	
1	Avtotransport vositalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan savdo tarmoqlarida ishlab chiqarish mamlakatidan qat'i nazar xarid qilingan	xarid qilingan narxdan 3%
2	Foydalanilgan avtotransport vositalari bo'yicha	foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan %da
		3 yilgacha 3 yildan 7 yilgacha 7 yildan ortiq
	Engil avtomobillar	11 9 6
	Mototsikllar (shu jumladan mopedlar) va yordamchi dvigatel o'rnatilgan velosipedlar, kajavali yoki kajavasiz	10 7 5
	Boshqa motorli transport vositalari	16 13 9
III	«O'zavtoyo'l» DAK korxona va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larning byudjetga tushishi lozim bo'lgan umumiy summasidan ajratmalar (%)	50

Izohlar:

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir vaqtda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 yanvardagi 11-son Qarori bilan belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasi bilan Davlat chegarasini kesib o'tadigan xorijiy yuk avtotransport vositalari va avtobuslarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o'tishi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan birga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 dekabrda 274-son Qarori bilan belgilangan miqdorlarda yig'implar ham undiriladi.

3. O'zbekiston Respublikasi uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 1999 yil 28 sentyabrda 477-son Qaroriga muvofiq 175 AQSH dollari miqdorida yig'im undirildi.

4. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'implar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsienti qo'llaniladi.

5. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Yig'implarni to'lash tartibi

Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda, soliq Kodeksi 324-moddasining 9-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet

davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

9.7 Byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Soliq to'lovchilar

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar;

umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aktsiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza

Sof tushum byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir.

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-

tadqiqot ishlarining qo`shilgan qiymat solig`i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta`minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo`lsa, ushbu materiallarga bo`lgan mulk huquqi buyurtmachining o`zida saqlanib qolgan taqdirda, o`z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko`rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo`yicha, vositachilik, topshiriq shartnomalari bo`yicha hamda vositachilik xizmatlari ko`rsatishga oid boshqa shartnomalar bo`yicha vositachilik xizmatlari ko`rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko`rsatilgan xizmatlar uchun qo`shilgan qiymat solig`i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug`urta tashkilotlari uchun — agar mazkur moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, ushbu Kodeksning 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo`lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo`yicha foizli daromad summasi.

Quyidagilarga soliq solish ob`ekti sifatida qaralmaydi:

ushbu Kodeksning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar;

hayotni sug`urta qilish sohasiga taalluqli shartnomalar bo`yicha sug`urta mukofotlari (badallari), qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha topshirilgan to`lovlar summalari, shuningdek ushbu Kodeks 150-moddasining 2 va 4-bandlarida ko`rsatilgan daromadlar.

Soliq to`lovchilar turli xil soliq solish ob`ektlariga ega bo`lgan hollarda, ular soliq solish ob`ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob`ektlardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalarni to`lashi shart.

STABKA: O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 0,5 foiz miqdorida

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to`lash tartibi

Byudjetdan tashqari Umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va

jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalarni to'lash:

byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg`armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

1. “Soliq va soliqqa tortish” maxsus kursini o`qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlarining huquq hamda majburiyatlari. “Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursini noiqtisodiy ta’lim yo`nalishi talabalariga o`qitishning zarurligi, kursning maqsadi va vazifalari. Soliq tushunchasi, soliqlarning zarurligi va soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Soliqqa tortish tamoyillari, soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif. Soliq tizimining mohiyati, soliq tizimini guruhlanish tartibi va soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarining guruhlanishi. O`zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari. O`zbekiston soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o`xshashlik va farqli jixatlari hamda soliq to`lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari.

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Sinkveyn, insert*

Adabiyotlar: A1,A2, A3,A4, Q3, Q5, Q6, Q7, Q8, Q9, Q10

**2.YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i.** YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining iqtisodiy mohiyati va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining byudjet daromadlarida tutgan o`rni. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i to`lovchilari tarkibi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining soliq solish ob`ekti va bazasi. YUridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi va jami daromadidan chegirmalar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini hisoblash va byudjetga to`lash muddatlari. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha davlat soliq xizmati organlarining nazorati.

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Suhbat, aqliy hujum, taqdimot, blits-so`rov.*

Amaliy mashg`ulot uchun masalalar:

1-masala. Ishlab chiqarish korxonasi ikkinchi yil faoliyat yuritmoqda, uning foyda solig`i to`lagungacha bo`lgan daromadi (2-son, 170-satr) 150 mln so`m bo`lgan.

Hisobot davri uchun qo`shimcha ravishda quyidagi ma’lumotlar mavjud:

Xokimiyatga homiylik yordami ko`rsatilgan-18 mln so`m;

qariyalar uyiga yordam ko`rsatish uchun –9 mln so`m;

ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun-249 mln so`m (yil davomida to`plangan eskirish-281 mln so`m);

Hisobot davri uchun korxona to`lashi lozim bo`lgan daromad solig`i necha so`mga teng?

2-masala. Qo`shilgan qiymat solig`i va foyda soliqlar to`lovchisi ishlab chiqaruvchi korxona 2010 yil hisobot davri uchun quyidagi ko`rsatkichlarga ega:

Ichki bozorda mahsulotni sotishdan tushgan tushum-12800 mln so`m;

Chet el valyutasiga sotilgan mahsulot 14 mln AQSH dollari miqdorida (yuk ortilgan vaqtda 1 AQSH dollari-1140 so`m)

Omborxonalarni ijaraga berishdan olingan sof daromad-2700 mln so`m;

Uskunalarni o`z vaqtida olib kelib o`rnatilmagani uchun sotuvchi korxonadan tushgan jarima va shartnomada ko`rsatilgan qo`shimcha to`lov-998 mln so`m;

YOrdamchi korxonadan olingan dividendlar (dividenddan undirilgan soliq xaqidagi ma`lumot mavjud)-1339 mln so`m;

«Ishonch» firmasi tomonidan xodimlar bo`limiga tegishli 1751 mln so`mlik kompyuter datsuri yaratilgan va tekinga o`rnatib berilgan.

2015 yilda qonunchilikka asosan chegirmaga olib berilgan 3005 mln so`mlik sotilgan mahsulotning puli kelib tushgan.

Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi-11375 mln so`m, shu jumladan ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy vositalarning eskirishi belgilangan me`yorga nisbatan 2 koefitsient qo`llanilgan bo`lib, 2100 mln so`mni tashkil etgan.

O`tgan davr uchun quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

Me`yor chegarsida o`zining mahsulotini reklama qilish uchun –125 mln so`m sarflangan;

Boshqaruvda ishlovchilar uchun ish haqi bo`yicha xarajat-4495 mln so`m;

Xizmat safari xarajatlari, me`yordagisi-392 mln so`m, me`yordan yuqori-85 mln so`m;

Xizmat avtomobili saqlash uchun xarajatlar-145 mln so`m;

Uyali telefon-1345mln so`m;

Ishlab chiqarishda qatnashmaydigan asosiy vositalar eskirishi-895 mln so`m;

Hisobot davrida hisobvaraqlar bo`yicha olingan qo`shilgan qiymat solig`i-925 mln so`m.

Aniqlang:

1.Hisobot davrida davlat byudjetiga to`lanishi lozim bo`lgan foyda solig`i summasini.

2.Davlat byudjetiga to`laniishi lozim bo`lgan ko`shilgan qiymat solig`ini.

3.Korxonaning moliyaviy natijlari bo`yicha hisobotni (2-shakl) tuzing.

4.Hisobot davri uchun foyda solig`ining shaklini to`ldiring.

Masalani echish davrida mol-mulk solig`i, yer solig`i hamda boshqa soliqlar va majburiy to`lovlarga ahamiyat bermaslikka ruxsat etiladi.

3-masala. O`zbekistondagi korxona (mehmonxona) xorijiy yuridik shaxs bilan mehmonxonani boshqarish bo`yicha xizmat ko`rsatish uchun shartnoma tuzgan. Ushbu boshqaruv bo`yicha xizmatlar xorijiy yuridik shaxsning doimiy O`zbekiston xududida turadigan menedjer-norezident tomonidan amalga oshiriladi. Kelishilgan shartnomaga muvofiq boshqaruv bo`yicha ko`rsatilgan xizmatlar uchun xorijiy yuridik shaxs – norezidentga yiliga 120000 AQSH dollari miqdorida daromad olishi lozim.

Norezident tomonidan olingan daromad O`zbekiston Respublikasida soliqqa tortiladimi?

4-masala. O'zbekiston rezidenti bo'lgan korxona AQSHda o'zining bo'linmasini ochish paytida Amerikaning yuridik kompaniyasi bilan yuridik xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgan. Amerika yuridik kompaniyasi 8000 AQSH dollari miqdorida yuridik xizmat ko'rsatgan. Ish bajarilganligi haqidagi dalolatnoma imzolanayotgan vaqtida kurs 1 AQSH dollari uchun 1650 so'm miqdorida belgilangan.

Yuridik kompaniyadan olingan daromadi bo'yicha soliq undirilishi lozim-mi?

3.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq va uning o'ziga hosligi va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lov manbaida ushlab qolish. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq undirish jarayoni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Nazorat savollari, BBB jadvalini to'ldirish*

2017 yil yanvar oyi uchun daromad solig'i progressiv shkalasi

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	daromad summasining 0 foizi
eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqi miqdorining bir baravaridan oshadigan summaning 7,5 foizi
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summaning 17 foizi
eng kam ish haqining o'n baravaridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summaning 23 foizi

Yanvar oyi uchun eng kam ish haqi miqdori - 149775 so'm.

Amaliy mashg'ulot uchun masalalar:

1-misol. Korxona xodimiga 2016 yil yanvar oyi uchun 1800000 so'm ish haqi hisoblab yozilgan.

Xodimning ish haqidan yanvar oyi uchun daromad solig'ini hisoblang.

4.Qo'shilgan qiymat solig'i. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va axamiyati. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi, qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti va uning

tarkibi. Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari. Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari hamda import qilinadigan ishlar va xizmatlarga qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash tartibi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Birgalikdagi ta`lim, texnikasi: prezentatsiya, blits-so`rov, esse, grafik organayzer: "klaster"*.

Amaliy mashg`ulot uchun masalalar:

1-masala. Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchi korxona 1200 ming so`mga qo`shilgan qiymat solig`i bilan 400 kg bo`yoq sotib olgan. Sotib olingan bo`yoqdan:

- 50 kg sifati yomon bo`lganligi uchun sotuvchiga qaytarib berilgan;
- 100 kg tekinga bolalar bog`chasiga berilgan;
- 20 kg korxona klubini ta`mirlash uchun ishlatilgan;
- 180 kg ishlab chiqarish uchun ishlatilgan;

Aniqlang:

Korxona qo`shilgan qiymat solig`i qaysi qismini hisobga kiritish huquqiga ega?

2-masala. O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan korxona huquqiy xizmat ko`rsatilishi uchun Germaniyaning yuridik korxonasi bilan shartnoma tuzdi.

Germaniya yuridik korxonasi 12000 AQSH dollariga huquqiy xizmat ko`rsatdi, xizmat ko`rsatilganlik haqidagi dalolatnoma imzolaniyotgan vaqtda O`zbekiston Respublikasida dollarning kursi 1 AQSH dollari uchun 2650 so`mni tashkil etgan.

Aniqlang:

Import qilingan xizmat uchun qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblang?

3-masala. Qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchisi bo`lgan qayta ishlash korxonasi joriy yilda quyidagi ko`rsatkichlarga ega:

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum-2400 ming so`m;
- bunda qaytarib berilishi lozim bo`lgan idishning narxi-150 ming so`m;
- tekinga tannarxi bo`yicha 100 ming so`mlik maxsulot berilgan.
- Olingan jarima summasi-30 ming so`m;
- Bankdan olingan foizlar-12 ming so`m;
- 200 ming so`mga korxona tomonidan nomoddiy aktivlar sotilgan (boshlang`ich narxi - 600 ming so`m, to`plangan amortizatsiya - 420 ming so`m);
- noliqvid xom-ashyo zaxiralari sotishdan tushgan tushum - 96 ming so`m, ularning tannarxi -85 ming so`m;

Hisobvaraq-fakturada olingan qo`shilgan qiymat solig`i:

- xom ashyo uchun-480 ming so`m;
- ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga berishdan-150 ming so`m;
- uyali aloqadan-60 ming so`m;

Aniqlang:

Joriy davrda davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i necha so'mga teng?

4-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi korxona ko'rpa tikib chiqaradi.

Bitta ko'rpaning tannarxi-5mln so'm. Qo'shilgan qiymat solig'isiz bitta ko'rpaning sotish narxi –9 mln so'm.

2015 yil joriy davrda sotilgan ko'rpalar:

· 300 ta – ichki bozorda;

· 500 ta – erkin valyutaga eksport qilingan (9 mln so'mga ekvivalent bo'lgan narxda).

Bundan tashqari 10 tasi bolalar bog'chasiga tekinga berilgan.

40 ta-korxona ishchi-xizmatchilarga 4 mln so'mdan sotilgan.

5ta-xodimlar bo'limi boshlig'ining tug'ilgan kunida (yubiley) xadya qilingan.

Aniqlang:

Sotuv ayланmalari bo'yicha hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini?

5.Aksiz solig'i. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni va O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aksiz solig'i. Aksiz solig'i to'lovchilarining tarkibi, aksiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aksiz solig'i stavkalari. O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan aksizosti mahsulotlariga qo'llaniladigan soliq stavkalari. Aksiz solig'ini hisoblash, aksiz solig'ini hisobga olish tartibi va aksiz solig'ini to'lash muddatlari. Import qilinadigan aksizosti mahsulotlaridan soliq undirish tartibi. Aksiz markalari va ularni qo'llash tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Munozara, suhbat,tezkor-so'rov*

Amaliy mashg'ulot uchun masalalar:

1-masala. 20 ming butilka (0,5l dan) aroqni sotishda aksiz solig'i summasini hisoblang, agarda aroqdan spirtning hajmi 41 % ni tashkil etsa.

Aksiz solig'i summasini hisoblang?

2-masala. Aksiz osti tovari bo'lgan kir sovuni bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ini hisoblang, agarda korxonaning bir dona kir sovun ishlab chiqarishi uchun barcha xarajatlari-180 mln so'mni, foyda me'yori – 25 % ni, aksiz solig'i stavkasi –20%ni tashkil etsa.

Aksiz solig'i summasini hisoblang?

3-masala. Korxona aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaradi.

Aksiz solig'ining stavkasi 5%ni tashkil qiladi. Tovarning aksiz va QQSiz narxi - 87 000 so'm.

3 dona miqdorida tovar realizatsiya qilingan.

Etkazib berish qiymati QQSni hisobga olgan holda 328 860 so'mni tashkil qilgan.

Hisobvaraq-faktura yozib berilayotganida jadval qismini quyidagi tartibda to'ldirish kerak:

4-"Narxi" ustunida tovar birligi narxi ko'rsatiladi;

5-"Etkazib berish qiymati" ustunida miqdorni (3-ustun) narxga (4-ustun) ko'paytirish bilan aniqlanadigan etkazib berish qiymati, ya'ni $261\,000 \text{ so'm} (3 \times 87\,000)$ ko'rsatiladi;

7-"Aktsiz summasi" ustunida belgilangan formula bo'yicha hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi ko'rsatiladi. Mazkur misol bo'yicha aksiz $13\,050 \text{ so'mni} (261\,000 \times 5\%)$ tashkil qiladi;

9-"QQS summasi" ustunida qo'shilgan qiymat solig'i summasi - $54\,810 \text{ so'm} ((261\,000 + 13\,050) \times 20\%)$ ko'rsatiladi.

10-"QQSni hisobga olgan holda etkazib berish qiymati" ustunida - aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda etkazib berishning to'liq qiymati (5-ustun + 7-ustun + 9-ustun) ko'rsatiladi. Mazkur misol bo'yicha etkazib berishning to'liq qiymati $328\,860 \text{ so'mga} (261\,000 + 13\,050 + 54\,810)$ teng.

9	O`rindosh xodimga yanvar oyiga 600000 so`m ish haqi to`langanda	600 000	-	-	-	33 766,8	48 000	4 502,24	81 766,8	518 233,2
10	Hodimning yanvardagi oylik maoshi 600000 so`mni tashkil etganda va maydoni 50 kv bo`lgan turar joyini yuridik shaxsga oyiga 800000 so`m ijara haqi olish evaziga ijaraga berganda	700 000	-	-	800 000	33 766,8	48 000	4 502,24	141 766,8	1 258 233,2

* Qimmatbaho sovg`a miqdori pulda ko`rsatilgan bo`lsa ham, ushbu jadvalda qo`lga tegadigan oylik maoshi summasiga qo`shilmay ko`rsatilgan.

“Jismoniy shaxslarning daromadidan soliqlar va majburiy to'lovlarni hisob-kitob uslubiyati” mavzusi bo'yicha vaziyatli holat echimini aniqlash bo'yicha o'qitish texnologiyasi.

Baqt: 2 soat.	Talabalar soni: 20-25 ta.
Mashg'ulot shakli	Nazariy bilimlar asosida bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarish.
Mashg'ulot rejasi	1.Mavzu mazmuniga kirish. 2.Bilimlarni jonlantirish. 3.Keys bilan individual tanishish. 4.Keysni kichik guruhlarda echish va taqdim qilish. 5.Natijalarni tahlil qilish va baholash. 6.Mashg'ulotni yakunlash. Guruh va talabalar faoliyatini hamda o'quv mashg'ulotida erishilgan yutuqlarni baholash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalar egallagan nazariy bilimlar asosida amaliy harakatlar, fikrlash orqali muayyan iqtisodiy va moliyaviy vaziyatni to'g'ri baholab, asosli boshqaruv qarorlarini qabul eta bilishlari kerak.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
Soliq kodeksini mukammalroq o'zlashtirish; Soliq kodeksida jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlarni to'g'ri qo'llay olishni o'rgatish; JSHDS stavkalarini bilib olish; JSHDSni va boshqa majburiy ajratmalarini to'g'ri hisob-kitob qilish;	Soliq kodeksida jismoniy shaxslar daromadi va ularga imtiyozlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar; Kodekslarni o'qib tushunish qonun-qoidalarini o'zlashtiradilar; Kodeks bandlarini to'g'ri qo'llashni o'rganadilar; JSHDS stavkalarini bilib oladilar; JSHDSni to'g'ri va aniq hisob-kitob qilishni o'rganadilar;
O'qitish usullari	Keys-stadi usuli, amaliy mashg'ulot, bahs
O'qitish vositalari	Keys, tarqatma materiallar, flipchart, markerlar, skotch, A32 qog'oz varaqlari
O'qitish shakllari	Individual, frontal va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoiti	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baho	Kuzatuv, blits-so'rov, taqdimot, baholash.

O`quv mashg`ulotining texnologik kartasi

Ish bosqich-lari	O`qituvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
	O`qituvchining	Talabalarning
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, keys stadini ishlab chiqadi. Keys materiallari bilan tanishish va echish uchun talabalarga tarqatadi. Baziyaatni tahlil qilish uchun uslubiy ko`rsatmalar. Mustaqil tahlil qilishni va natijalarni vaziyatni tahlil qilish varag`iga kiritishni topshiradi.	Keys-stadi mazmuni bilan tanishadilar. Mustaqil tayyorgarlikni boshlaydilar. Baziyaatni tahlil qilish varag`ini individual ravishda to`ldiradilar.
1-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daq)	1.1.O`quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o`quv faoliyati natijalarini hamda olib borilish rejasini ma`lum qiladi 1.2.Keys-stadining maqsadini va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta`sirini aniqlaydi. 1.3.Talabalarning mashg`ulotdagi faoliyatini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi .	Tinglaydilar, savollar beradilar, tanishadilar
2-bosqich. Asosiy qism. (60 daq)	2.1.Mavzu bo`yicha blits-so`rov usulida talabalar bilimlari jonlantiriladi (1-Ilova). 2.2.Talabalarni guruhlariga bo`ladi. Keys bilan mustaqil ishlash natijalarini kichik guruhlarda muhokamasini tashkil qiladi, Kollektiv ravishda vaziyatni tahlil varag`ini to`ldirishni, individual holda echilgan muammoli vaziyat echimi bo`yicha muhim natijalarni baholash va tanlashni, taqdimotga tayyorlashni topshiradi.	Savollarga javob beradilar, muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar Topshiriqlarni muhokama qiladilar, vaziyatli holatni mustaqil tahlil qiladilar.
2-bosqich. Asosiy qism. (60 daq)	2.3.O`quv faoliyatini boshqaradi, maslahat beradi. Individual ish natijalarini tekshiradi va baholaydi. 2.4.Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Keysni hal qilish ishlari natijalari bo`yicha guruhlardan vakillarini taqdimotga chaqiradi. Taqdimot davomida guruh vakillariga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi. 2.7.Topshiriqlar echimini guruhlararo baholanishini tashkil qiladi. Har bir guruhning ish natijalari umumlashtiriladi	Guruhlarda birgalikdagi topshiriqlarni bajaradilar. Guruhlar ish natijalarining taqdimotini o`tkazadilar. Bahsda ishtirok etadilar, savollar beradilar, baholaydilar

	va xulosalar beriladi, o`zaro baholanadi.	
3-bosqich. YAkun- lovchi. (10 daq)	3.1.Mashg`ulotga yakunlovchi xulosalar qiladi. Natijalarni izohlaydi. 3.2.Har bir ishtirokchini hisob-kitob ishlarini to`g`ri va aniq bajargani, ma`ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi. 3.3.YAna bir bor keysning maqsadini va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta`sirini aytib o`tadi.	Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.

VI. MUSTAQIL TA'LIM MABZULARI

Har o`quv yilida talabalar tasdiqlangan o`quv rejasiga asosan turli fanlardan, shu jumladan «Soliq va soliqqa tortish» fanidan mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar. Uning qay darajada muvaffaqiyatli tayyorlanishida talaba tomonidan fanning mohiyatini aniq bilishi hamda ushbu ishlarni bajarishga qo'yilgan talablarni bilishligi bilan bevosita bog'liqdir.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish jarayonida talaba tanlangan mavzu bo'yicha ish rejasini tuzishi, mavzuga tegishli adabiyotlarni chuqur o`rganishi, amaliy ma'lumotlardan keng foydalanishi va hamda ulardan turli jadvallar va chizmalar tuzishi lozim.

Mustaqil ta'lim bo'yicha mavzular kafedraning fan (mutaxassis) o`qituvchilari tomonidan talabalar o`qiyotgan fanning shakli va uning mohiyatiga asosan aniqlanib chiqiladi. Bu bo'yicha ilmiy rahbar zimmasiga talabaga mavzuni tanlash, mavzu bo'yicha ish rejasini tuzish, kerakli adabiyotlarni tanlash, ajratilgan muddat davomida ishning hajmi bo'yicha maslahat berish va metodik tomondan yordam ko`rsatish kiradi.

Mustaqil ta'lim tayyorlayotgan talabalar o`zlarining ilmiy dunyoqarashlarini chuqurlashtirishlari, o`quv-tadqiqot ishlari amaliyotining ko`nikmasini o`rganishlari, zarur kitoblardan foydalana olishlari, amaliy va statistik ma'lumotlarni tahlil eta bilishlari lozim bo`ladi.

Mustaqil ta'lim tayyorlashda talaba mavzu bo'yicha turli grafiklarni, chizmalarni, jadvallarni ilova qilishi lozim. Talaba tomonidan tayyorlanadigan yozma qismida foydalanilgan adabiyotlardan to`liq ko`chirib olish taqiqlanadi. To`liq ommaviy axborot vositalardan olingan sitatalar haddan tashqari ko`p foydalanishlik ham tavsiya etilmaydi. Keltirilgan barcha sitatalar, statistik ma'lumotlar albatta olingan ma'lumot manbalarga izoh tarzida ko`rsatilishi shart.

SHunday qilib, talabalar mustaqil ta'limni tayyorlash jarayonida, amaliy ma'lumotlarda ishlash bo'yicha ko`nikma va tajribaga ega bo`ladi, o`z ilmiy qarashlarini mantiqan fikrlash hamda mavzu bo'yicha eng zarur holatlarni aniqlay olish qobiliyatini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bundan tashqari mustaqil ta'limni tayyorlash jarayonida talaba nazariy va metodologik ma'lumotlarni chuqur tahlil etish asosida masalalarni hal etish bo'yicha aniq amaliy takliflarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo`ladi.

MUSTAQIL ISH MABZULARI.

1. Mol-mulk solig`ini hisoblashning amaldagi mexanizmi
2. Qo`shilgan qiymat solig`i bo'yicha belgilangan imtiyozlar
3. Er solig`ini hisoblash mexanizmi
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash mexanizmi
5. Umumdavlat soliqlarining davlat byudjetidagi o`rni va ularni soliqqa tortish mexanizmi
6. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash mexanizmi
7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq qonunchiligi
8. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish mexanizmi

9. YUridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi
10. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmi
11. Soliq qonunchiligi va soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solish
12. YUridik shaxslardan olinadigan yer solig`ini hisoblashning amaldagi mexanizmi
13. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish
14. aktsizlar: mohiyati, o`rni va undirish mexanizmi
15. YUridik shaxslardan undiriladigan foyda solig`ini hisoblash va byudjetga undirish tartibi.
16. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`ini hisoblash mexanizmi
17. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o`rni va ahamiyati.
18. Kichik biznesni rivojlantirishda yagona soliq to`lovining ahamiyati.
19. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari
20. YUridik shaxslardan olinadigan egri soliqlar va ularning korxonalar moliya-xo`jalik faoliyatiga ta`siri.
21. Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati va mohiyati
22. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo`llari
23. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni hisoblash mexanizmi
24. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o`ziga xos xususiyatlari.
25. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i va uni undirish tartibi.
26. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kredit tashkilotlarining daromadlariga soliq solish mexanizmini takomillashtirish
27. Mahalliy soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish
28. Sug`urta tashkilotlarining daromadlariga soliq solishning o`ziga xos xususiyatlari
29. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida chet ellik jismoniy shaxslarga soliq solishning o`ziga xos xususiyatlari
30. Er qa`ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to`lovlarning hisoblash mexanizmi
31. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ini hisoblash mexanizmi
32. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblash mexanizmi
33. Foyda solig`i va uning tadbirkorlik sub`ektlari iqtisodiy faoliyatiga ta`siri
34. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to`lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishni nazorat qilish
35. Dehqon xo`jaliklariga soliq solish mexanizmini takomillashtirish

36. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korxonalar iqtisodiy faolligini tartibga solishda soliqlarning tutgan o`rni
37. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblash mexanizmini takomillashtirish
38. Jismoniy shaxslarni mulkiy daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish
39. Davlat soliq xizmati organlari tizimi va uni takomillashtirish muammolari
40. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekiston Respublikasida soliq yuki darajasini baholash mezonlari va uni kamaytirish masalalari
41. O`zbekistonda qo`shilgan qiymat solig`ini joriy qilishning iqtisodiy sabablari va uni takomillashtirish yo`llari
42. Jismoniy shaxslarni deklaratsiya asosida soliq solish tartibini takomillashtirish
43. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan aktsizli tovarlarga aktsiz solig`ini hisoblash mexanizmini takomillashtirish
44. YAkka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari
45. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekiston Respublikasida valyuta va eksport- import operatsiyalarini Davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazoratini takomillashtirish
46. O`zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig`imlarning amal qilish mexanizmi.
47. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekiston Respublikasida soliq siyosati va byudjet tizimini barqarorlashtirishdagi o`rni
48. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq siyosatining asosiy yo`nalishlari va uni o`ziga xos xususiyatlari.
49. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq yukini aniqlash tartibi va uni maqbullashtirish yo`llari.
50. YUridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat soliqlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari.
51. O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlarining tashkiliy tuzilmasi va soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi o`rni
52. YUridik shaxslardan undiriladigan yer solig`i va uni soliq tizimida tutgan o`rni.
53. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va uning stavkalarini belgilash mezonlari.
54. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibini takomillashtirish.
55. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o`tkazish tartibi.

VII. GLOSSARIY

Asosiy ish joyi – ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi;

Asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot - birgalikdagi faoliyat natijasi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

Byudjetdan ajratiladigan subsidiya – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari; soliq to'lovchiga muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar hisobiga bo'shaydigan mablag'lar;

Grant – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk;

Dividendlar – aktsiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalar bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aktsiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aktsiyalar qiymati, aktsiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari;

Jismoniy shaxs (fuqaro) tushunchasi - Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

Ijara (lizing) to'lovi – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa;

Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi - buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) ob'ektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi;

Insonparvarlik yordami – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va

boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg`araz ko`maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste`moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O`zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish – ishlarni bajarish (xizmatlar ko`rsatish) joyidan qat`i nazar O`zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish;

Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo`lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

**Kurs bo`yicha farq** – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o`zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

Mol-mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob`ektlari bo`la oladigan moddiy ob`ektlar, shu jumladan pul mablag`lari, qimmatli qog`ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob`ektlar;

Oila a`zolari – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi bo`lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish;

Realizatsiya qilish – sotish, ayirboshlash, beg`araz berish maqsadida tovarlarni jo`natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko`rsatish, shuningdek garovga qo`yilgan tovarlarga bo`lgan mulk huquqini garovga qo`yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvaraqa-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko`rsatilganligi to`g`risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo`natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko`rsatilganligini tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

Rezidentlar - O`zbekiston hududida tashkil etilgan va ro`yxatdan o`tgan yuridik shaxslar yoki bosh korxonasi O`zbekistonda joylashgan bo`lib, O`zbekistondan tashqarida ro`yxatdan o`tgan yuridik shaxslar bo`lib, O`zbekiston hududida hamda chet elda olgan daromadlaridan soliq to`lovchilar hisoblanadi.

Norezidentlar-O`zbekiston hududida tashkil etilmagan yoki bosh korxonasi O`zbekistonda joylashmagan yuridik shaxslardir. Norezidentlar faqat O`zbekiston hududida olgan daromadlaridan soliq to`laydilar.

Royalti – quyidagilar uchun har qanday turdagi to`lovlar:

fan, adabiyot va san`at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob`ektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun;

sanoat mulki ob'ektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun;

Savdo faoliyati - qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat;

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq krediti – byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – kichik biznes sub'ektlarini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladigan soliqqa tortish tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yori.

Soliq yuki – soliq to'lovchilarning muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisidir. Mamlakat miqyosida muayyan davrdagi barcha to'langan soliqlar va yig'implarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i ham soliq yukini ifodalaydi.

Soliq yukini engillashtirish – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob'ekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birlashtirish.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalarini qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

Soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar;

Sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aktsiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

Sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda;

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

Tovar oboroti – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chogʻida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim boʻlgan), pulda ifodalangan mablagʻlar;

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim boʻlgan) mablagʻlar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq toʻlash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati;

Tovarlarni eksport qilish – Oʻzbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish;

Toʻlov manbai – soliq toʻlovchiga toʻlovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

Umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud daʼvo qilish muddati oʻtishi oqibatida uzish mumkin boʻlmagan qarz;

Favqulodda holatlar – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bogʻliq boʻlmagan, tabiat hodisalari (zilzila, koʻchkilar, boʻron, qurgʻoqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini koʻzlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib boʻlmaydigan va kutilmagan holatlar boʻlib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi;

Foizlar – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qogʻozlar, shuningdek depozit qoʻyilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad;

Yuridik shaxslar -Oʻzbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq toʻlovchilar ikki guruhga boʻlinadi: yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar.

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qiskacha yuridik shaxs deb ataladi.

Oʻz mulkiga ega boʻlgan va oʻz majburiyatlarini shu mulklar bilan bajaradigan, soliq idoralarida roʻyxatdan oʻtgan, bankda hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya balansiga ega boʻlgan korxona, tashkilot, birlashma va ularning mustaqil shaxobchalariga yuridik shaxslar deb ataladi.

Yuridik shaxs maqomidan tashqari soliq toʻlovchi boʻlish uchun yana, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olgan boʻlishi, tovar (ish, xizmat) sotishdan oborotga va boshqa mulklarga ega boʻlishlari shart.

Yuridik shaxslarning byudjetga toʻlaydigan soliqlari toʻgʻri va egri soliqlarga boʻlinadi. Toʻgʻri soliqlar daromad (foyda) soligʻi va resurs soliqlaridan, egri soliqlar esa qoʻshilgan qiymat soligʻi, aksiz soligʻi, bojxona bojidan iboratdir.

Yuridik shaxslarning daromadidan (foydasidan) soliq - bu yuridik shaxslarning hamma faoliyatidan olgan daromadlarini (foydasini) bir qismini byudjetga majburiy toʻlovidir. Bu erda soliq toʻlovchilar soliqqa tortish maqsadida rezident va norezidentlarga boʻlinadi.

YUtuq – lotereyalar, o`yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidagi yoki pulda ifodalangan to`lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar;

YAqin qarindoshlar – er, xotin, ota-ona, bolalar, tug`ishgan hamda o`gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar;

O`zbekiston Respublikasi soliq to`lovchilarining yagona reestri – soliq to`lovchilarga oid davlat ma`lumotlar bazasi tizimi;

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar – buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo`lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

Chet el yuridik shaxslari- rezidentlar va norezidentlarga bo`linadi. Rezidentlar O`zbekistondagi yuridik shaxslar kabi soliqqa tortiladi. O`zbekiston Respublikasida faoliyat ko`rsatuvchi norezident yuridik shaxslar:

- doimiy muassasa orqali faoliyat ko`rsatuvchi;

- doimiy muassasa bo`lmagan faoliyat ko`rsatuvchi yuridik shaxslarga bo`linadi.

Birinchi guruhdagilarning O`zbekistonda olgan daromadlari ularning soliq idoralariga taqdim etadigan deklaratsiyalari orqali soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqilib soliqqa tortiladi.

Ikkinchi guruh norezidentlarning O`zbekiston hududidagi korxona va tashkilotlardan olgan daromadlari manbaida jami daromad dan hech qanday chegirmasiz soliqqa tortiladi (ushlanib qolinadi).

«Doimiy muassasa» tushunchasi - soliqqa tortish maqsadida O`zbekiston hududida daromad olish uchun faoliyat ko`rsatayotgan har qanday joy hamda har qanday tashkilot yoki vakolatli funktsiyani bajarayotgan yuridik shaxsdir. Bu tushuncha o`z ichiga: boshqaruv o`rni, bo`lim, ofis, idora, fabrika, ustaxona, shaxta, neft yoki gaz quvuri, tosh qazish yoki har qanday foydali qazilmalar qazib oluvchi joylarni oladi.

Royalti - bu intellektual mulklardan kelgan daromadlardir. Intellektual mulklarga yangilik yaratilganligi to`g`risidagi patent, litsenziya, tovar belgisi va boshqalar kiradi.

Investitsiya - korxonaning o`zi amalga oshirgan quyidagi:

- yangi qurilish shaklidagi kapital qurilishga, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirishga sarflangan mablag`lar;

- imoratlar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari (ularning qismlarni) ishlab chiqarish maqsadlari uchun sotib olishga sarflangan mablag`lari kiradi.

Qo`shilgan qiymat solig`i - bu korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo`shilgan) qiymatning bir qismini byudjetga majburan olishdir.

QQSdan imtiyozlar - bu korxonaning iste'molchilarga tovar ortganda, ish bajarganda, xizmat sotganda QQSni hisoblamaslik hamda byudjetga soliq to'lamaslikni ifodalaydi.

QQS to'lovchilari - bu O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tovarlar importi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Aktsiz solig'i - bu ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba'zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy byudjetga to'lovdir.

Aktsiz solig'i ob'ekti - bu O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chikarilgan tovarlar, eksport va import qilingan ba'zi tovarlar oboroti hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i - bu korxonalar mulklarining dastlabki qiymati, o'rnatilmagan mulklar qiymatidan hisoblanib, ularning daromadidan byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlardir.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar - bu o'z mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o'tgan yuridik shaxslar (savdodan tashqari) va imtiyoz olgan yuridik shaxslar bu soliqni to'lamaydilar.

O'rtacha qiymat - bu asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha sotib olingan vositalarning hamda ishga tushirilmagan mulklar qiymatining yil boshi va oxiridagi summalarini yarmi, boshqa oylar boshidagi balans qiymatning to'liq summolari yig'indisini 12ga bo'lish bilan aniqlanadigan qiymatdir. Bu qiymat choraklik va yil bo'yicha aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilarning yagona yer solig'i - yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari, agrofimlar, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chikaruvchilar hisoblanadi. Bu korxonalar o'z hohishlari bo'yicha byudjetga yoki yagona yer solig'i to'lovchilar yoki qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan yagona soliq to'lovchilari bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslarning (noqishloq xo'jalik) yer solig'i - o'zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar yer solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarning identifikatsion raqami (STIR) - soliq to'lovchining soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligini ko'rsatuvchi dalildir. Bu raqam soliq to'lovchining tegishli hisobot va hisoblarini, boshqa hujjatlarini tez topishda yordam beruvchi sonidir.

Soliq qonunchiligi buzilganda qo'llaniladigan jazolar (sanktsiyalar) - bu intizomsiz soliq to'lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular uch xil bo'ladi: ma'muriy, moliyaviy va jinoiy.

YAlpi ichki mahsulot (YAIM)- bu ma'lum bir davrda (yil) mamlakat ichida bozor bahosida yaratilgan hamma tovarlar va xizmatlarning qiymatidir.

Byudjet jarayoni - Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va

tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Byudjet dotatsiyasi - o`z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag`lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning harajatlari bilan daromadlari o`rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag`lari.

**Byudjetdan mablag` ajratish** - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag`lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag`lari.

Byudjet profitsiti - muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet harajatlaridan ortiq bo`lgan summasi.

Byudjet ssudasi - yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag`.

Byudjet subventsiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag`lari.

**Byudjet so`rovi** - byudjet tasnifi bo`yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag` ajratish to`g`risidagi so`rov.

Byudjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog`liq bo`lgan o`z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag` ajratish nazarda tutilgan va bu mablag` moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo`mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Byudjet taqchilligi - muayyan davrda byudjet harajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo`lgan summasi.

Byudjet transferti - byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag`lari.

Davlat byudjeti - davlat pul mablag`larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg`armalari mablag`larining) markazlashtirilgan jamg`armasi bo`lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag`lar sarfi yo`nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat ichki qarzlari - davlat tomonidan ichki mablag`ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O`zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig`indisi.

**Davlat maqsadli jamg`armalari** - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg`armalar bo`lib, ularning har biri uchun mablag`lar manbalari, har bir manbadan mablag` tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag`lardan foydalanilishi mumkin bo`lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat tashqi qarzi - davlat tomonidan xorijdan mablag` jalb qilish natijasida vujudga kelgan O`zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig`indisi.

**Davlat tomonidan ichki mablag`ni jalb qilish** - aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O`zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi

rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag` jalb qilish - aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Davlat qarzi - davlat tomonidan ichki mablag`ni va xorijdan mablag` jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig`indisi.

Mahalliy byudjet - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag`lari jamg`armasini tashkil etuvchi bir qismi bo`lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag`lar sarfi yo`nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Moliya yili - birinchi yanvardan o`ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo`lgan vaqtni o`z ichiga oluvchi davr.

Respublika byudjeti - Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo`lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag`lar sarfi yo`nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

**Daromad solig`i** – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to`lov (soliq).

Daromad solig`i stavkalari – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

Dividend – aktsionerlik jamiyati sof foydasidan aktsiya egalariga to`lanadigan qismi bo`lib, u aktsionerlarga naqd pul yoki aktsiyalar bilan to`lanadi.

Investitsion soliq krediti – soliq majburiyati bo`yicha to`lash muddatini o`zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to`lovchida belgilangan tartibdagi asos bo`lsa, u holda soliq to`lovlarini kamaytirilgan holda ma`lum bir vaqt ichida bosqichma – bosqich to`lash mumkin bo`ladi.

Investitsion hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko`rinishi bo`lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag`lari, banklarga qo`yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog`ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Kichik korxonalar – mustaqil xo`jalik faoliyatini olib boruvchi, o`z balansiga bo`lgan, soliqlar va boshqa to`lovlarni to`lagandan so`ng qolgan foydasini o`zi taqsimlaydigan korxona.

Mikrofirma – kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko`rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Proteksionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o`zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo`jalik faoliyatidir.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2014,- 52 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: “O'zbekiston”. 2016.
3. «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1997 yil 29 avgust, 1-2 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 27 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2009 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-1024-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2013 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-1889-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2014 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-2099-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2015 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-2270-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2016 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-2455-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdaqi “O'zbekiston Respublikasining 2017 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to'g'risidagi PQ-2699-sonli qarori.
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.”O'zbekiston” 2017. 54 bet.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaqi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947 sonli farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // http://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=1288
13. Baymurotov T., Radjabov U. Soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. -110 b.
14. Husainov R. Moliya va soliqlar (2qism- Soliqlar va soliqqa tortish.) O'quv qo'llanma.-T.: “Boris nashriyot” 2014.
15. Isroilov B. Soliqlar hisobi va tahlili: muommolar va ularning echimlari. –T.: “O'zbekiston”. 2006. -270 b.
16. Jo'raev A. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. 2004. -211 b.
17. Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. –T.: “Fan” nashriyoti. 2009. -387 b.
18. Jo'raev A. Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. 2005. -120 b.

19. Jo'raev A.S. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 2007. -232 b.
20. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so'zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.
21. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 y.
22. Latipov A. Erdan foydalanish va soliqqa tortish. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005. -245 b.
23. Malikov T. Soliq va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya. 2002. -253 b.
24. O'razov K. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2003. -164 b.
25. Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. 2005. -156 b.
26. Toshmurodova B. Soliq nazorati. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. 2007. -120 b.
27. Umarov B. Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. 2005. -179 b.
28. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”. 2005. -282 b.
29. Vahobov A. Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma.-T.: “Fan va texnologiya” .2009.
30. Yuldashev A. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma.-T.: “Fan va texnologiya” . 2007. -128 b.
31. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005. -544 b.
32. Александров И. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Дашков и Ко”. 2006.-312 ст.
33. Internet saytlari
 - <http://www.gov.uz>
 - <http://www.lex.uz>
 - <http://www.edu.uz>
 - <http://www.mf.uz> –O'zR Moliya vazirligi sayti.
 - <http://www.soliq.uz> – O'zR Davlat Soliq Qo'mitasi sayti.